

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida**

**MANSUROVA NASIBA ILXOMJONOVNA**

**TA‘LIM JARAYONIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI  
JORIY ETISHNING IJTIMOIV PEDAGOGIK ASOSLARI**

**5A140801 – Pedagogika (ta‘lim turlari bo‘yicha)  
magistr akademik darajasini  
olish uchun**

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI**

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga  
Ruxsat berildi.

kafedra mudiri \_\_\_\_\_

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 201\_\_y

**M.O‘.**

Ilmiy rahbar:

Prof. Shodiyev N. \_\_\_\_\_

**Samarqand – 2011**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. OLIY TA'LIM JARAYONIGA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI</b>	
1.1. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish pedagogik muammo sifatida.....	9
1.2. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarning mavjud holati.....	26
<b>II BOB. OLIY TA'LIM JARAYONIGA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI</b>	
2.1. Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llash.....	43
2.2. Talabalarda pedagogik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish samaradorligini aniqlash bo'yicha tajriba-sinov ishlari.....	72
Umumiy xulosalar.....	77
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	79

## Kirish

Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri - bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq.

**I.A.Karimov**

**Tadqiqotning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasidagi milliy va ijtimoiy–tarixiy taraqqiyotning tezkor surati, ro'y berayotgan ijtimoiy hodisalar mazmuni, fan texnika va texnologiya sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlarning ta'lim sohasiga faol tadbiiq etilishi yosh avlodni tarbiyalashda o'ziga xos yondashuvni qaror toptirish zaruriyatini olib chiqmoqda. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning qabul qilinishi jamiyatda uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ta'lim jarayonining faol subyekti o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat mohiyatining yangicha yo'nalishi va mazmunga tayanish zarurligini ko'rsatmoqda.

Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi IX sessiyasida (1997 yil 29 avgust)da so'zlagan nutqida ta'lim jarayoni darslikdan boshlanishi haqidagi haqiqatga to'xtalib shunday degan edi: ”Yangi darsliklarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur” [5,8].

Pedagogik texnologiyalar “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” da dolzarb tadqiqot obyekti darajasiga ko'tarilgan va jamiyatimizning fan, ta'lim muassasalari oldiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi sifatida e'tirof etilgan.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida talabalarning sog'lom fikr, yangicha tafakkur, ilmiy bilim bilan qurollantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni taqozo etmoqda. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni

joriy etish talabalarining muammolarni izlab topish, ularni hal qilish loyihalarini ishlab chiqish, ularni joriy etish bilan bog'liq jarayonlarni mustaqil ravishda bajarishga ko'maklashadi.

Yuqorida bayon qilinganlar biz tanlagan "Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-pedagogik asoslari" mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

***Tadqiqotning maqsadi*** – bakalavr ta'limi jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish.

***Tadqiqotning obyekti*** – bakalavr ta'limi jarayonida innovatsion texnologiyalar orqali talabalarni har tomonlama shakllanish jarayoni.

***Tadqiqotning predmeti*** - bakalavr ta'limi jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-pedagogik asoslari mazmuni.

***Tadqiqotning vazifasi*** - tadqiqot maqsadiga muvofiq ravishda dissertasiya oldiga qo'yidagi vazifalar qo'yildi:

1. Bakalavr ta'limi jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning mavjud holatini o'rganish.

2. Bakalavr ta'limi jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqishga xizmat qiluvchi obyektiv va subyektiv omillarni aniqlash.

3. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqishga xizmat qiluvchi maqbul shakl, metod va vositalarni belgilash.

4. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo'llash sifatlarini shakllantirishning maxsus metodikasini tajriba-sinovdan o'tkazish va samaradorligini aniqlash.

5. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo'llashda ijtimoiy-pedagogik

asoslarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim samaradorligini ta'minlashga oid uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish.

### ***Tadqiqot metodlari .***

Tadqiqot muammosiga doir pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar mazmunini o'rganish hamda nazariy va qiyosiy tahlil qilish, pedagogik kuzatish, bakalavr talabalari o'rtasida suhbat o'tkazish, pedagogik-tajriba sinov metodi, savol-javob, matematik-statistika usuli.

### ***Tadqiqotning metodologik asoslari.***

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Prezident I.A.Karimovning 2004 yil 21 maydagi «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida»gi farmoni va mamlakatda innovatsion texnologiyalarni jadallashtirish bo'yicha ilgari surilgan g'oyalari, xorijiy va o'zbek pedagog olimlarining innovatsion pedagogik texnologiyalarni yaratish bo'yicha monografiya, qo'llanmalari tadqiqotning metodologik asosini tashkil qildi.

***Tadqiqotning ilmiy farazi*** – agarda biz o'z oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalarni a'lo darajada bajarsak, dissertasiya ta'lim tizimiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati yangi sharoitda, yangi talablar asosida faoliyat olib borishga tayyor mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan muhim kechiktirib bo'lmas vazifalarni amalga oshirishni taqazo etmoqda .

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'zaro hamkorlik, o'z-o'zini boshqarish ishga tushmoqda, o'qituvchilar o'z ijodiy faoliyatlarini yangi shakl va metodlarni topishga ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni olib kirishga qaratmoqdalar. Barcha ta'lim sohalarida o'qituvchilarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishda innovatsion jarayonlar nazariyasi va amaliyoti o'rtasidagi munosabatlarda prinsipial yangi shakl va mexanizmlarni joriy etishni taqazo etadi. Innovatsion yangiliklarni sezish, anglash, har qanday o'qituvchiga ham xos bo'lavermaydi. Bu o'rinda eng asosiysi o'qituvchining o'zi yangilikni sezishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak. O'qituvchining innovatsion faoliyati ta'lim-tarbiya jarayonida paydo bo'ladigan muammolarni tezda aniqlab olishga

undaydi. Muammolarni aniqlash va tezda bartaraf etish imkoniyatlarini qidirish bu tamomila yangi innovatsion madaniyatni shakllantiradi.

Dastlab «innovatsiya» soʻzini qarab chiqaylik. U keng maʼnoda ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan yangilik maʼnosini anglatuvchi tushuncha sifatida yuzaga kelgan boʻlib, bugungi kunda u koʻproq yangiliklarni amaliyotga joriy etish maʼnosida qoʻllanilmoqda.

Jumladan, **I.A.Prigojinning** taʼrifiga koʻra “Innovatsiya”-muayyan ijtimoiy birlikka-tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turgʻun usullarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq oʻzgarishlarni tushunadi.

V.A.Zagvyazinskiy **yangi** tushunchasiga taʼrif berib, “Pedagogikadagi **yangi** bu faqatgina gʻoya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir. Lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari boʻlib, oʻzgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda taʼlim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilgʻor boshlanmalarini oʻzida aks ettiradi” [17].

Bugungi kunda taʼlim sohasida innovatsion mohiyat kasb etuvchi koʻplab yangiliklar amalga oshirilmoqda.

Rossiya taʼlim akademiyasi akademigi **V.A.Slastenin** pedagogik jarayon, pedagogik jarayonga qaralganda innovatsiya tushunchasini taʼlim va tarbiyaning maqsadi, mazmuni, metod hamda shakllariga yangilik kiritish deb hisoblaydi.

Innovatsion faoliyatni bosqichlarga ajratishda ham turlicha qarashlar mavjud boʻlib, fikrimizga koʻra bu borada **V.A.Slastenin** taklif etilgan yechimni eng maqbul koʻrinishga ega, yaʼni:

1. Yangi gʻoyaning yoki yangilikni yaratish konsepsiyasi yuzaga kelishi.
2. Yaratilgan yangilikning biror buyum yoki jarayonda aks ettirilishi.
3. Yangilikning taʼlim jarayoniga tadbiq etilishi.
4. Yangilikning taʼlim jarayonida keng joriy etilishi hamda boshqa turdagi sohalarda qoʻllash uchun asoslarning yaratilishi.

5. Yangilikning to'la amalga oshirilishi va nisbatan "o'z imkoniyatlarini" yangiligini "sarflab" bo'lishi, odatda ushbu bosqichga kelib, joriy etilayotgan yechimga nisbatan yanada yuqoriroq natija berishi mumkin bo'lgan muqobil yangiliklar yuzaga keladi.

6. Taklif etilgan yangi yechimni tadbiq etilish ko'lamining qisqarib borishi, hamda uning o'rnini yangi, yanada samaraliroq yechimlar egallashi. Innovatsion yechimlarni ta'lim amaliyotiga joriy etilishini aks ettiruvchi mazkur bosqichlar, garchi g'oyaning yuzaga kelishdan boshlab, uning almashtirilishigacha bo'lgan yakunlangan davrni qamrab olsada birmuncha soddalashtirilgan ko'rinishga ega. Amaliyotda hamma vaqt ham bu bosqichlarni amalga oshirish ketma-ketligida hamda ularning davriyligida doimiylik kuzatilavermaydi. Keltirilgan innovatsion faoliyatni bosqichlarga asoslangan holda o'qituvchilar tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog'liq pedagogik innovatsiya jarayonini quyidagi bosqichlarda aks ettirish mumkin:

-dastlabki birinchi bosqich empirik tarzdagi bog'liqliklarni tahlil qilishdan va uning elementlardagi yangilik darajasini aniqlash, har qaysi olingan yangilik elementi umumiy yangilikka qanchalik ijobiy hamda salbiy ta'sir etishni tasniflashdan boshlanadi.

-ikkinchi bosqich bevosita pedagogik innovatsion jarayonni o'rganish va bir madaniy ikkinchisiga ko'chirishni nazarda tutadi.

-uchinchi bosqichda novator pedagog turli innovatsion vaziyatlarni yaratish, ulardan olinadigan natijalarning qanchalik ijobiy va salbiy ta'sirga ega bo'lishi mumkinligini baholash ustida ish olib boradi.

### ***Tadqiqotning ilmiy yangiliklari.***

-dissertasiyada birinchi marta bakalavr bosqichida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy va pedagogik asoslari muammosi mustaqil tadqiqot sifatida tadqiq etildi.

-umumiy pedagogika, pedagogika tarixi fanining ayrim mavzulari misolida ta'lim mazmunini didaktik o'zgarishlar orqali o'qitishning interfaol usuldagi dars ishlanmasi ishlab chiqildi.

-pedagogik faoliyat samardorligini ta'minlovchi shakl, metod va vositalar tizimi tavsiya etildi.

-ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni ijtimoiy-pedagogik asoslari joriy etilishini aniqlovchi mezonlar ishlab chiqildi.

-ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida o'tishning va pedagogik faoliyat samardorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

# **I BOB.OLIY TA'LIM JARAYONIGA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI**

## **1.1. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ijtimoiy-pedagogik muammo**

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgach rivojlangan demokratik davlat qurish bo'yicha ildam qadamlar tashlamoqda. Ana shunday porloq maqsadga erishish yo'lini Prezident I.A.Karimov o'z asarlarida asoslab berdi.

Rivojlangan demokratik davlatlarning farqli xususiyatlaridan biri - bu fan, texnika va texnologiyalarni yuksak darajada rivojlanishidir.

Bu esa zamonaviy ta'lim tizimi bilan ta'minlanadi. Shu boisdan ham jamiyatimizning ta'lim muassasalari oldiga yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash buyurtmasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da rasman e'tirof etilgan.

O'z-o'zidan ravshanki, O'zbekiston taraqqiyotining poydevori bo'lmish barkamol avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularda tez taraqqiy qilib borayotgan ilm-fan va ilg'or texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni an'anaviy-ko'rgazmali ta'lim usuli yordamida amalga oshirib bo'lmaydi.

Shu boisdan ham Davlat ahamiyatiga molik ushbu hujjatni ro'yobga chiqarishning ikkinchi bosqichida "...o'quv jarayoni...ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi", deb ta'kidlangan bo'lsa, uning uchinchi bosqichida esa "...o'quv-tarbiya jarayoni ...ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanadi" deb katta ishonch bildirilgan[7,41].

Ma'lumki, milliy pedagogikamiz, pedagogik amaliyot uchun texnologiya, ta'lim jarayonini loyihalash, pedagogik texnologiya, innovatsion ta'lim

texnologiyasi, innovatsion faoliyat kabi tushunchalar yaqin-yaqinlargacha pedagogik muloqotda ishlatilmas, notanish tushunchalar edi.

Shu boisdan ham pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion texnologiyalarning mazmun-mohiyati va ularning an'anaviy(tushuntirish)-ko'rgazmali ta'lim usulidan farqini yoritib berish maqsadga muvofiqdir.

Haqiqatan ham mustaqillik yillarida pedagogik adabiyotlarimizda, ta'lim muammolariga bag'ishlangan ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda "Yangi pedagogik texnologiya", "Ilg'or pedagogik texnoliya", "Progressiv pedagogik texnoliya, "Zamonaviy ta'lim texnologiyasi" iboralari ko'p ishlatilmoqda. Ushbu xilma-xillik hozirgi kunda ham Pedagogik texnologiya iborasi standartlashmaganligidan, bir qolipga keltirilmaganligidan, u ensiklopediyalarda izohlanmaganligidan, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmaganligidan dalolat beradi.

Endi milliy ta'lim tizimimizga zamonaviy o'qitish texnologiyalarini joriy qilishning zaruriy sabablarini ko'rsatamiz:

-ma'lum sabablarga ko'ra jahon hamjamiyati taraqqiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi;

-an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli "axborotli o'qitish" sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi;

-fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga yetkazish uchun vaqtning chegaralanganligi;

-kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan,

aniq yakunga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi;  
-yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

Respublikamizda joriy qilinajak ta'lim texnologiyasi yuqorida bayon qilingan shartlarni barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbirdir.

Mazkur zaruriyat, shu vaqtga tahsil oluvchilar yopiq tafakkur paradigma(namuna, misol)lari asosida o'qitilganligi, ularda o'zgacha nuqtai nazarni tan olmaslik, faqat o'z farqini to'g'ri deb bilish shakllantirilganligidandir. Bu holat harqanday taraqqiyotga g'ov bo'lib, shu paradigmada yurgan kishilarni inqiroz sari yetaklab kelgan.

Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, uning iqtisodiy va siyosiy mavqeyi kundan-kunga ortib bormoqda. Ammo ijtimoiy sohada va ayniqsa ta'lim-tarbiyada deysinish va umumiy taraqqiyotdan orqada qolish sezilmoqda. Ushbu vaziyatdan chiqishning yo'llaridan biri – bu ta'lim-tarbiya jarayonini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Davlat ta'lim standartlari asosida texnologiyalashtirishdir.

Ta'lim jarayoniga mukammallik, aniqlik, yo'lga solinganlik, tartiblilikka ravonlik, vazminlik alomatlarini berish orqali uning samaradorligini oshirish va mukammallashtirish yo'llarini izlash bo'icha pedagogika sohasida doimo tadqiqotlar olib borilgan.

Ilmiy texnika taraqqiyotining XX asrning o'rtalaridagi taraqqiyot t'limga, xuddi ishlab chiqarish-texnologik jarayonidek, ya'ni ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan xarakterni berish imkoniyatini yaratdi.

Mavjud pedagogik adabiyotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, XX asrning 50 yillarida AQShda ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasi vujudga kelib, uni B.Blum, D.Krotpol, N.Gromlunu, J.Kerrol, J.Blok, P,Anderson kabi taniqli

olimlar moddiylashtirishga muvaffaq bo'ldilar.

Pedagogik texnologiyalarni 1972 yilda Isroilda bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyalarda YuNESKO tomonidan rasman tan olishi va quvvatlanishi tufayli ular tez orada barcha rivojlangan mamlakatlarga tarqalib ketdi. Natijada, Yaponiya, Koreya, Malayziya, Filippin, Turkiya kabi davlatlar o'quvchilar o'zlashtirishini oshirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ushbu mamlakatlardagi jahon olimmadalariga qatnashgan o'quvchilar doimiy ravishda nufuzli o'rinlarni egallaganlar.

Ma'lumki, ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni, ma'lum sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilgan o'quv natijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etadi.

Bunday yondashishning mohiyati, ta'lim jarayonini tizimlashtirishdan – uni, aniq rasmiylashtirilgan va detallari bo'yicha aniq elementlarga bo'lib tashlash yordamida maksimal shakllantirishdan iborat.

Bu yerda sobiq SSSR pedagogika fanining markaziy nashrlarini atroflicha tahlilini ko'rsatishicha ta'lim nazariyasi va amaliyotda, o'quv jarayoniga texnologik kiritish XX asrning 50-yillaridan boshlagan bo'lib, ular an'anaviy o'qitish uchun texnik vositalar majmuasini yaratishda o'z ifodasini topganligini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Xuddi shuningdek, pedagogik texnologiyalar Angliya, AQShda ham o'zining rivojlanishini qator bosqichlarini o'taganligini ta'kidlash joizdir. Navbatdagi vazifa rivojlangan mamlakatlar ta'lim muassasalarida yuqori samara bilan qo'llanib kelinayotgan mavjud ta'lim texnologiyalarni sinchkovlik bilan o'rganish hamda xalqimizning milliy pedagogika an'alaridan hamda mazkur sohaga kadrlar tayyorlash milliy dasturi qo'ygan talablar asosida O'zbekistonning milliy ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishdan iboratdir.

Ma'lumki, "Texnologiya" tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga kirib kelgan. U grekcha so'z bo'lib, "tehne" –san'at, mahorat, "logos" fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan[11,64].

"Siyosiy lug'at"da texnologiyaga shunday izoh berilgan: ishlab chiqarish jarayoniga ashyolar, materiallar, yarim tayyor ashyolarni qayta ishlash, tayyorlash holati, xususiyati, shaklining o'zgarishi metodlari yig'indisi; 2)ashyolar, materiallar va yarim xom-ashyoga muvofiq ishlab chiqarish qurollari orqali ta'sir o'tkazish usullari to'g'risidagi fan.

"Qomusiy lug'at"da him shunga yaqin izoh beriladi, lekin unda birmuncha kengroq yoritiladi: "Fan sifatida texnologiyaning vazifasi har tomonlama samarali va tejamli ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash va amaliyotda undan foydalanish maqsadida fizika, kimyo, mexanika va b. Qonuniyatlarini bajarish".

Pedagogikada innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta'limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarida dastlab, AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida "ta'lim texnologiyasi" tushunchasi e'tirof etilgan vaqtida paydo bo'ldi. O'sha vaqtdayoq Yevropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashkil etildi. Bu tushunchalarning paydo bo'lishi va innovatsion ta'lim nazariyasining yaratilishi to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tushunchalar ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga kiritish orqali ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta'lim jarayonida bolaga do'stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida o'tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmida pedagogik faoliyat bu-ijodiy jarayon va pedagogik innovatsiyalar birlashmasi, degan yangi ilmiy yo'nalishtarkib topdi. Bu esa o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining umumiy va alohida jihatlarini K. Angelovskiy, G.I.Gorskaya, V.A.Kan-Kalik, S.L.Kuzmina, V.A.Slastenin, L.M..Fridman kabi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berdilar. Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani rivojlantirish muammolari ustida pedagog olimlardan N.Azizxo'jaeva, B.Farbermen, U.Nishonaliev, N.Sayidahmedov, M.Ochilov, B.I.Moronov, N.Shodiev va b.q.lar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

I.Shumpater va N.Kondratevlar «**Innovatsiya**» tushunchasining ilk va ulkan nazariyachilari hisoblansalar, K.Angelovskiy, V.A.Slastenin va V.I.Slobadchikovlar o'z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion faoliyat pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotlashga harakat qildilar hamda bu borada muayyan natijalarga erishgan olimlar, deb tan olinadilar. Jumladan, V.I.Slobadchikov shunday yozadi: "Avvalo, innovatsion faoliyatni ilmiy ijodiyot sohasidagi faoliyatga o'xshatib bo'lmaydi, chunki bunday o'xshatish innovatsion faoliyat atamasi ma'nosini sayozlashtirib yuboradi. Chunki, har qanday ilmiy-texnikaviy faoliyat o'z tabiatiga ko'ra innovatsion hisoblanadi. Shuning uchun innovatsion faoliyatni ma'lum bir ijtimoiy amaliyot maydonida ko'rib chiqish zarur. Bu amaliyotni konkret sub'ekt nuqtai nazaridan va amaldagi an'anaga nisbatan jiddiy o'zgarishlarga olib keladigan har qanday faoliyatni innovatsion deb hisoblash mumkin".

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, 80-yillarda pedagogik faoliyatni avvaldan puxta ishlab chiqilgan dastur g'oyalariga muvofiq amalga oshirish va dasturlashtirilgan mustaqil malaka oshirishni tashkil etish tashabbusi ko'tarildi. Natijada o'quvchilarning masofadan malaka oshirish tizimini yaratish kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi.

"Innovatsion faoliyat" tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.Mkritichiyanning bu haqdagi fikri diqqatga sazovor: -"Pedagogik tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajriba-sinov

ishi, o'qituvchining innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko'p bo'lsa, o'qituvchi xususiy eksperimenti shuncha yaxshi tushunadi".

Innovatsion faoliyat-pedagogning o'z kasbini takomillash-tirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e'tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri – bu ta'limga yo'naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o'rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o'tiladigan uzilishlar. Yana muqimroq sabab esa ta'limiy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o'rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o'tiladigan uzilishlardir. O'qituvchi innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak.

Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izohlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas.

**Innovatsiya**-lotincha inovatio (yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deb ta'riflanadi. Bu tushuncha avstraliyalik iqtisodchi Yozef Shumpeterning "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" asarida kengaytirildi. "Innovatsiya" tushunchasi fanga XIX asrda kirib keldi.

Yozef Shumpeter innovatsiyani shunday aniqlaydi.

-yangi material va komponentlarga asoslangan barcha yangi komponentlarni kommersionlash;

-yangi jarayonlarni kiritishga, yangi bozorlarni ochishga;

-yangi tashkiliy shakllarni kiritishga.

Yozef Shumpeter ta'rifiga ko'ra, innovatsiya-bu bir vaqtni o'zida ikki dunyoni, ya'ni texnika dunyosini va biznes dunyosini namoyon bo'lishidir. Agar

texnologiya darajasida o'zgarish sodir bo'lganda, u uni kashfiyot deb ataydi. Uning ta'kidlashicha, agar o'zgarishga biznes jalb qilsa, u holda kashfiyot innovatsiyaga aylanadi. Innovatsiya-bu biror bir yangilikni yaratish uchun imkoniyatlarni anglangan, maqadga qaratilgan holda izlashning natijasidir.

Rivojlangan dunyoning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu bilimlarga asoslangan iqtisodiy bilimlarning shakllanishi bo'lib, ularda raqobat moddiy resurslar va arzon ishchi kuchi emas, balki axborot va g'oyalarda ustunlik qiladi.

Bunday iqtisodiy tizimlarni innovatsion jamiyat deb aytish mumkin. Innovatsion jamiyatlar - yaxshi tashkil qilinganligi va moliyalanganligi, ta'lim va fanning yuksak darajada rivojlanganligi hamda shaxs, insonlar guruhi va tashkilotning ijodiy potensialiga, bilimlarni ommalashtirishning rivojlangan tuzilmasiga yo'nalganligi bilan ajralib turadilar.

Innovatsiya bilimlarni talab qiladi.

Fan – bu pulni bilimga aylantirish bo'lsa, innovatsiya bilimni pulga aylantiradi. Innovatsion ishlab chiqarish - bu yangi bilimlarni o'zida jamlangan texnologiyalarni qo'llashga asoslangan ishlab chiqarishdir.

Ushbu ta'rifdan ko'rinadiki, innovatsion ishlab chiqarish – bu “Yangi ishlab chiqarish sohasi” emas, balki ishlab chiqarish faoliyatining xarakteridir. Bunday ishlab chiqarish jarayonida asosiy rol axborot va g'oyani mexanik tarzda ishlatishdan uni intellektual, ijodiy ishlatish tomonga qarab siljishdir. Innovatsiya – amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir. Bu g'oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo'lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas.

Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologiya jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Bugun ta'lim tizimidagi pedagogik innovatsiya – pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirish, nihoyat uni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot sifatida qaraladi.

Bu ta'limot uch yo'nalishni o'z ichiga oladi:

-pedagogik neologiya(yunoncha neo – yangi va logos – ta'limot), yangi ta'lim, yangilik haqidagi ta'limot) deyilib, bunda pedagogika sohasidagi har qanday yangiliklar o'rganiladi, chuqurlashtiriladi;

-pedagogik aksiologiya (yunoncha aksioma-xizmat qilmoq, isbotlanmaydigan ta'limot) deyilib, bunda pedagogik yangiliklar ichidan eng samaralilari tanlab olinadi;

-pedagogik proksologiya (yunoncha proks-harakat va logos ta'lim, amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot) deyilib, bunda tanlab olingan yangiliklar amaliyotda qo'llaniladi.

Innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma'qullanmoqda:

-faoliyat yo'nalishiga qarab(pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).

-kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (radikal, modifikasiyalangan, kombinasiyalangan).

-o'zgarishlar ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli).

-kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

**Innovatsiyaning maqsadi** – sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lami asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit

tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz **novatsiya** bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsiplar o'zgarishiga olib kelsagina **innovatsiya** deya olamiz.

Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: novatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo'nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

Innovatsiyaning amaliyotda kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. **Innovatsion jarayon** deb – innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi.

Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, ta'lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha o'rganilgan.

Ta'lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta'riflash imkoniyati paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat – pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. **“Innovatsion faoliyat** – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmualar muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir”, - deb ta'kidlaydi V.I.Slobadchikov. Innovatsion faoliyat – bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo'lib, u ma'lum doiradagi

muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivasion tayyorgarlikka ega bo'lishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

O'tgan asrning 70-yillari oxirlarida A.M.Arsyenyeva, Ma'lumki, "Texnologiya" tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan K.N.Volkov, M.O'.Skatkin va O'zbekistonlik pedagog olimlardan bir guruhi pedagogika fani va amaliyotida muvaffaqiyatga erishish muammosini hal qilish borasida samarali g'oyalarni ilgari so'rdilar va ta'lim samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining ta'lim jarayoniga yangiliklarni kiritishga tayyorgarlik darajasi asosiy o'rin egallashini asoslab berdilar. Shunga ko'ra "innovatsion o'zgarishlarni sezish, anglash har qanday o'qituvchiga ham xos bo'lavermaydi, deb yozadi **U.Nishonaliyev**, - bu yerda eng asosiysi o'qituvchining o'zi yangilikni sezishga psixologik jixatdan tayyor bo'lishidir"[24].

Innovatsion faoliyat - uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq; vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O'qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o'rganib chiqqan pyedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy byelgilari dyeb hisoblash mumkin:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot myetodlarini egallash;
- mualliflik kontsyepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- ajriba-sinov ishlarini ryejalashtirish va amalga oshira olish;
- `zidan boshqa tadqiqotchi-pyedagolgar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikir almashish va myetodik yordam ko`rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o`z sharoitiga moslashtirib borish.

O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etish

jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o`sb borayotganligini tushunish natijasida vujudga keldi. Uning taxlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishni uz ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq, etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni ham qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning tuzilishini o`rganib chiqqan olimlardan biri V.Slastenin uni quyidagicha tuzilishga ega dyeb ko`rsatib o`tadi: "Innovatsion faoliyatning tuzilishi - ijodiy yondashuv, ijodiy faollik` yangalikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha madaniyati. Innovatsion faoliyatning darajalari: reproduktiv, evristik, kreativ bo`lishi mumkin".

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni taxlil asosida aniqdash.
2. Muljallanayotgan ta'lim tizimini loyixalash.
3. O`zgarishlar va yangiliklarni ryejalashtirish.
4. O`zgarishlarni amalga oshirish.

Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad - o`qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o`z ustida ishlash ko`nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pyedagogik texnologiyalar, interfaol myetodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg`ulotlarni o`tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

Innovatsion faoliyat - bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqdaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan maxsulot yaratish bo`lib, uning pragmatik xususiyati shundaki, u g`oyalar maydonida xam va aloxdda bir sub'yektning xarakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo`ladigan holdagina xaqiqiy innovatsion hisoblanadi. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi

texnologiyaning shakllanishi bo`lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi-loyihaga, loyihani-texnologiyaga aylantirishga yo`naltirilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyatda ilmiy tasavvurlar akademik ilm mantiqi bo`yicha tug`ilmaydi, balki rivojlanish jarayonining modifikatsiyalari qullab-quvvatlanishi natijasida rivojlanayotgan amaliyot mulohazasidan paydo bo`ladi.

Innovatsion faoliyat o`qituvchining o`z faoliyatidan ko`nikmasligidan kelib chiqadi. U o`qituvchi tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to`siqqa duch kelinib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilishj asosida yuzaga keladi. Innovatsion faoliyat yangi g`oyani izlashdan boshlanadi. Pedagogik innovatsiya ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala yechimiga yunaltilganligi sababli o`qituvchidan yangicha yondashuvni talab qiladi.

O`qituvchi innovatsion faoliyati tuzilishini tahlil qilishga turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, A.Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, ryejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi.

O`qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik, to`siqlar mavjud. Bularning" birinchisi"O`qituvchining o`zi ko`nikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyinligi ya'ni o`qituvchilarda ijodkorlikning yetarli emasligi bo`lsa, (yana bir sabab yangi va noma'lum narsalar har doim odamlarda cho`chish va hafsirashni keltirib chiqdrishidir.

A.M.Xon o`qituvchilarda innovatsion faoliyatni shakllantirishda uchraydigan psixologik to`siqlarning ikki turini ajratadi: kognitiv psixologik to`siqlar va muntazam paydo bo`ladigan to`siqdar. Kognitiv psixologik to`siqlar yangilik haqidagi bilimlarning yetishmasligi, yangilikni his qilmaslik va nafaol hatti-harakatlar hisoblansa, muntazam psixologik to`siqlar yangilikka nisbatan ishonchsizlik, rahbariyatga ishonmaslik, tashabbuskorlarni qo`llab-quvvatlamaslik va odatda yangilik kirituvchilarga qarshi kurashish kabi kurinishlarda namoyon bo`ladi.

Zamon shiddat bilan o`zgarib borar ekan, ta'lim sohasi ham u bilan barobar o`zgaradi va o`qituvchidan o`z faoliyatini o`zgartirishni talab etadi. Bugun o`qituvchining asosiy vazifasi faqat ta'lim berishgina emas, balki boshqaruvchilikdan iborat bo`lib, u ta'lim jarayonini to`gri tashkil qilishi va boshqarishi talab etilmoqda.

Innovatsion faoliyat o`qituvchining hamma muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faoliyat bo`lib, u shaxsning kasbiy, metodik mahoratini sifatli qayta qurish demakdir.

Bizning fikrimizcha o`qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini tahlil qilishni 3 bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo`ladi:

1. Yangilikni pedagogik faoliyatda qo`llashdan oldingi davrdagi o`qituvchi faoliyatini tahlil qilish.

2. Innovatsion faoliyatning faol shakllanish davrini tahlil qilish.

3. Pedagogik jarayonga yangilik kiritilib bo`lgandan keyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish.

Ma'lumki, shaxsning xislat va fazilatlari faoliyat ko`rsatish jarayonida shakllanadi va faoliyatning natijasi hisoblanadi. Shu sababli o`qituvchilarda yangilikka intiluvchanlik va mustaqil mutolaa qilishga doimo zaruriyat sezish psixologiyasini singdirish lozim. Chunki yangilik - insonga ulug`vorlikdan ko`ra ko`proq zavq bag`ishlaydi.

Agar o`qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash vazifalari malaka oshirish jarayonida amalga oshirilsa, amaliyotda ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etish ishlari ancha samarali bo`ladi hamda masofadan o`qitish tizimi kutilgan natijalarga olib keladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda shunday xulosaga kelish mumkin. O`rganib chiqilgan ilmiy ishlarning aksariyatida "innovatsion faoliyat" tushunchasiga ta'rif berilgan bo`lsada, bu sohada hammaga ma'qul keladigan va innovatsion faoliyatning to`liq mazmunini ochib beradigan yagona ta'rif

yaratilmagan, shuningdek, bu faoliyatni shakllantirish jarayoniga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas.

Mavjud adabiyotlarda asosiy urg'u iqtisodiy sohadagi innovatsiyalarga, bagishlangan bo'lib, ularda o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash masalalari, mazkur jarayon mohiyati ochib berilmagan. Respublikamizda esa yuqoridagi muammo doirasida ayrim elementlargina tadqiq qilingan, xolos.

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida tub isloxlarni amalga oshirish jarayonida ushbu ta'lim muassasalari oldidagi vazifalar mohiyati ham o'zgarganligini hisobga olib, o'qituvchi faoliyatini yangilash muammosi dolzarb pedagogik muammo sifatida tadqiq etishga muhtojdir.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da "Ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhitini vujudga keltiriladi", - deb ta'kidlab o'tilgan. Raqobatga asoslangan mehnat muhitini, vujudga keltirishning asosiy omillaridan biri o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish va bu faoliyatga tayyorlash orqali ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadqiq etish, o'qituvchilarga bilim berishni kafolatlash hamda ta'lim samaradorligiga erishishdan iborat[7,41].

Ta'lim tizimini mazmunan islox qilish jarayonida pedagog kadrlar o'z e'tibori, mas'uliyati va kasb ko'nikmasini oshirish yuzasidan sobitqadamlik bilan davlat siyosati olib borilmoqda. Bu borada o'qituvchi faoliyatini yangilash va innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish asosiy vazifa hisoblanadi. Har qanday boshqa soha mutaxassislari kabi o'qituvchilarning ham kasbiy tayyorgarlik darajasi ularning bilim, kunlik va malakalarini, ijodiy salohiyatni hamda nostandart tafakkurlarida o'z aksini topuvchi kasbiy layoqati bilan baholanadi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatini tashkil etib, uning shakllanish bosqichlarini quyidagicha belgilash mumkin:

**Birinchi bosqich** - tayyor metodik tavsiyanomalar aniq qilib ko'chiriladi.

**Ikkinchi bosqich** - mavjud tizimga ayrim yangi moslama (modifikatsiya)lar, metodlar kiritiladi.

**Uchinchi bosqich** - yangi g`oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakli to`la ishlab chiqiladi.

**To`rtinchi bosqich** – o`qituvchi o`qitish va tarbiyalashning o`z kontsepsiyasini va metodikasini ishlab chiqadi.

O`qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda jamoadagi psixologik muhit, jamoa a'zolarining qanchalik darajada dunyo ta'lim bozoridagi yangiliklardan xabardor ekanligini hisobga olish zarur.

Jamiyatimizning ta'lim muassasalari oldiga qo`ygan buyurtmasini bajarish uchun o`qituvchilar pedagogik tafakkurini tubdan o`zgartirish, avtoritar ta'lim usulidan voz kechish, o`qituvchi va o`quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan pedagogik faoliyatning yangi demokratik usullarini egallash, ijodiy faoliyatning pedagogik texnologiyalarini o`zlashtirishni taqozo qiladi. Ammo, hozirgi vaqtda o`qituvchilarning ko`pchiligi an'anaviy tushunchalardan voz kechib, yangi, innovatsion faoliyatning yanada mukammal tajribasini egallash quyidagi bosqichlarni ko`zda tutadi.

**Muammoli fikrlashni shakllantirish.** Innovatsion faoliyat o`qituvchining o`z faoliyatidan qoniq;masligidan kelib chiqadi. O`qituvchining u yoki bu pyedagogik vazfani hal qilishda tusiqlarga duch kelishi, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilishi asosida yuzaga keladi.

Innovatsion jarayonning boshlanishiga birinchi turtki odatda tashqi tusiqlar: faoliyat natijalarining pastligi, ish faoliyatidagi muvaffaqiyatsizlik va qiyinchilik, faoliyatni yangicha o`zgarib borayotgan talablarga mos "kelmasligi va h.k. sabab bo`lishi mumkin. Ko`pchilik hollarda o`qituvchining yangicha ish boshlashining motiv (vaji) o`quvchilarning o`qishga bo`lgan qiziqishlarini pastligi bilan boglangan. Biroq, o`z faoliyatidan qoniqmaslik hamma vaqt ham innovatsion faoliyatni boshlanishiga asos bo`lavermaydi. Chunki, ko`pchilik o`quvchilar pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan qiyinchiliklar oldida o`zlarini yuqotib

qo`yadilar, zero duch kelgan muammolar ularga hal etib bulmaydigan darajada qiyin bo`lib ko`rinadi.

Muammoli fikrlash innovatsion faoliyatni keltirib chiqarishi uchun ishdagi qiyinchiliklar oqibatida yuzaga keladigan qoniqmaslik hissi, o`z faoliyatidan qoniqmaslik hissiga, ya'ni tashqi to`siq ichki to`siqqa aylanishi zarur. Bu borada qo`yilgan murakkab vazifalarni hal etish uchun pedagoglarning o`zlari ish faoliyatlaridan qoniqmaslik sabablarini ularga ularning o`zlaridan qidirishni o`rgatish o`ziga tanqidiy qarashni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishi kerak.

**Zarur axborotlarni qidirish.** Faoliyatning ushbu davri pyedagogning oldida turgan muammolarni hal qilish imkoniyatlarini\_topish maqsadida, "axborotlarni izlash va tah.lil qilishga qaratiladi

Buning uchun pyedagogik dunyoqarashning kengligi, pyedagogika, psixologiya hamda myetodika sohasidagi yangiliklardan boxabarlik, o`z hamkasblari ilg`or tajribalarini o`rganish va ommalashtirish yo`llarini egallaganlik talab etiladi. O`qituvchi muammoni hal etishga oid axborotlar bilan qay darajada kengroq tanish bo`lsa, eng maqbul va samarali yechimini topish uchun qulayroq vaziyatni egallay oladi. Bugungi kunda pedagogika sohasi bo`yicha zamonaviy axborotlar bilan tanishish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Jumladan, pedagogika-psixologik adabiyotlar, gazeta va jurnallar, o`quv kurslari va syeminarlarda malaka oshirish, ilg`or o`qituvchilarning darslarini tahlil qilish, o`z tajribasini o`rganish kabilar shular jumlasidandir.

Ammo, innovatsion faoliyatni yandaa rivojlantirish uchun

chuqur nazariy maqola va qo`llanmalar emas balki o`qituvchilar uchun tushunarli tilda bayon qilingan, amaliy myetodik ishlanmalarni ko`proq yetkazib byerilishi ko`proq ko`mak berar ekan.

## **1.2. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarning mavjud holati**

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirishga qaratilgan harakatlar bir qator yetakchi xorijiy tashkilotlar tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda. Xususan, AXELS, IREX, JICA hamda KOICA kabi tashkilotlar tomonidan olib borilgan faoliyat o'zining samaradorligi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillar davomida yuqorida nomlari keltirilgan tashkilotlarning ko'magi va rag'batlari asosida respublikamizning bir qator yetakchi oliy ta'lim muassasalari qoshida innovatsion (pedagogik texnologiya) markazlar tashkil etildi. Mazkur markazlar tomonidan tashkil etilgan ilmiy seminar, qisqa va uzoq muddatli kurslarda oliy ta'lim muassasalari, akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari hamda umumiy o'rta maktablarning pedagogik xodimlari ishtirok etib, pedagogik texnologiya va undan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'ldilar. Oliy maktab muammolari instituti, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti qoshidagi markaz va O'zPFITIda bu borada bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim texnologiyasi borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ayni vaqtda ulardan samarali foydalanib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham bu borada muayyan tajribalar to'planayotgan bo'lsa-da, biroq bir qator muammolar ham mavjud (1-rasm).

Mazkur muammolarning ijobiy xal etilishi ta'lim-tarbiya jarayonida muayyan samaradorlikka erishish bilan bir qatorda barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashga imkon beradi.

O'zbekistonning ijtimoiy – pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashning dolzarbligi:

birinchidan, ma'lum sabablarga ko'ra jahon hamjamiyati taraqqiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi

uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilgor pedagogik tadbirlardan foydalanishining zarurligi;

1-chizma

<b>Ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish yo'lidagi muammolar</b>			
Ta'lim texnologiyasi g'oyalarining ta'lim jarayoniga to'laqonli tadbiq etilishi uchun mintaqaviy ichki imkoniyatlarni puxta o'rganish	Xususiylar fanlar-ning o'qitilishi jarayoniga ilg'or texnologiyalarni joriy etish choralari belgilash, zarur shart-sharoitlarni yaratish	Barcha turdagi ta'lim muassasalarining pedagog xodimlarini tayyorlash, ularning ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish malakalarini oshirish	Nazariyaning yagona nom bilan nomlanishi-shiga erishish  (bu pedagoglar o'rtasida muayyan tushunmovchiliklarni keltirib chi-qarmoqda)

Ta'lim sub'yektlarining texnikaviy savodxonligiga erishish	Tezkor axborot xizmatini yo'lga qo'yish	Pedagogik jarayonning demokratlashu va insonparvarlashuviga erishish	O'qituvchining individuallashuviga alohida ahamiyat berish	Tadqiqotlar na-tijalarini tahlil qilish, umumlashtirish, tavsiyalarni ishlab chiquvchi Markaz-ni tashkil etish
--	---	--	--	--

**1-jadval. Respublika ta'lim muassasalari faoliyatiga pedagogik texnologiyalarni joriy etish muammolari**

ikkinchidan, an'anaviy o'qitish tizimida, yozma va ogzaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli «axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanib, pedagog faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi;

uchinchidan, fan – texnika tarakkiyotining uta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaktning chegaralanganligi;

to'rtinchidan, kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bisqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi;

beshinchidan, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilgor bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa tizimli yondoshuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirishning zarurligini, MDX ga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida asoslab bergan, rossiyalik olim **V.P.Bespalkoning** fikricha, «PT – bu o'qituvchi maxoratiga bogliq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir» [12].

BMT nufuzli idoralardan biri bo'lgan YuNESKOning ta'rificha, «Ta'lim texnologiyasi – ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimidir» [11].

Keltirilgan ta'riflarni ilmiy – falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan MDH mamlakatlari olimlar tomonidan berilgan ta'riflar bir-biriga yaqin kelsa-da, farki ham anchaligini ko'ramiz. Jumladan, Sakomoto va YuNESKO ta'riflarida tizimli yondoshuv tamoyiliga alohida urg'u berilgan. MDH olimlarining PT ga bergan ta'riflarida tizimli yondoshuv eslatib o'tilgani bilan, o'quv jarayonining loyihasini tuzishganda, uni mutloq unutib, tizimli yondoshuv tamoyilining qonun va qoidalariga sira ham amal qilinmaganligini ko'ramiz.

Haqiqatda esa, obyektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilini yaxshi bilgan kishiga, Sakomoto aytganidek, «PT – o'quv jarayonini muayyan bir tizimga keltirishdir», - degan tushuncha kifoyadir. Bu tushuncha orqali PT ning boshqa hamma xususiyatlarni, ya'ni maqsadga yo'naltirilganini, bir necha o'zaro uzviy bogliq bo'lgan qismlardan tashkil topganligidan va boshqalarni anglab olsa bo'ladi.

*O'qitish texnologiyasi* – pedagogik texnologiya jarayonli-harakat aspektini anglatadi. Bu, ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim – tarbiya

jarayonlarini amalga oshirishni ta'minlovchi, usul va vositalar (texnologik operatsiyalar) ning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan, ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayondir.

*Tizim deb, tartiblangan, o'zaro uzviy boglangan va birgalida umumiy funksiyani bajaruvchi elementlar to'plamiga aytiladi.*

Demak, ta'lim jarayonini bir tizim deb qarash, uning tashkil etuvchilari (elementlari)ga qo'yidagilar kiradi: ta'lim maqsadi, uquv maqsadlari (kutilayotgan natijalar), ta'lim beruvchi, tahsil oluvchi, ta'lim mazmuni, ta'lim metodi, ta'lim shakli, ta'lim vositalari, nazorat va baholash. Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda sanab o'tilgan elementlardan birortasi e'tibordan chetda qolsa, noto'g'ri tanlangan bo'lsa tizim ishlamaydi, demakki, ta'lim jarayonining oldiga qo'yilgan massadiga erishilmaydi.

Masalan, avtomobil dvigatelining moylash tizimini ko'rib chiqadigan bo'lsak, uni tashkil etuvchi elementlaridan birortasi ishlamay qolsa yoki yomon ishlasa, dvigatelning ishqalanuvchi qismlariga moy yetib bormaydi va natijada dvigatel ishdan chiqadi. Demak, tizimning faoliyati uni tashkil etuvchi har bir elementiga va uz navbatida, har bir element bir biriga chambarchas bogliq.

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadi-ki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim amaliyoti va nazariyasi ilmida mustahkam o'rin egalladi.

Hozirgi kunda PT larning bir qancha ta'riflari mavjud.

V.P.Bespalko «PT» ni amaliyotda tadbiiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida belgilaydi va bunday tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'ladi» deydi. Bunda asosiy diqqat o'quv pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratiladi, didaktik vazifa va o'qitish texnologiyalari tushunchasidan foydalaniladi [13].

**N. F. Talizina** «har bir pedagog aniq pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o'quv jarayoni xaqida texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo'lishi shart» deb hisoblaydi. U fan va amaliyot oralig'ida tamoyillarni olg'a

suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi alohida fan bo'lishi kerak deb hisoblaydi [11].

Demak, bir xil yondoshuvda o'qitish texnologiyalari o'qitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida belgilanadi.

Boshqacha yondoshuvda esa, texnologiyaga ta'lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta'minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta'limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tadbiiq etish sifatida qaraladi.

PT ning mohiyatini yoritish uchun pedagog – didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalish maqsadga muvofiq:

«PT – psixologik va pedagogik o'g'itlar yigindisi bo'lib shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonini tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» [11].

«PT – rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayonining tavsifi» PT – bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birlikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiiq etish va belgilashning izchil metodidir» (YuNESKO) [11].

«PT – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishning tizimli yigindisi va tartibini bildiradi» [20].

Bu va shunga o'xshash tahlilidan PT natijasini qo'lga kiritish uchun ta'lim doirasida zarur bo'lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tadbiiq etishdan iborat deyish mumkin.

Ta'lim texnologiyasi deganda esa ta'limning belgilangan maqsadi va talabanning bilim darajasiga ko'ra o'quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi va pedagogik tizimning amalda bo'lishini ta'minlovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi.

Demak, **PT-ta'lim maqsadlariga erishish va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni doimiy ravishda rivojlantirish tizimining loyihasidan iborat deyish mumkin.** Loyihalashni esa metodologik funktsiya bajaradi. U esa uz navbatida talabaning psixik rivojlanish qonuniyatlari, o`quv jarayonining rivojlanish xususiyatlari va pedagogik boshqaruv usullarining tadqiqot vositasidan iborat deyish mumkin. Pedagogik ta'lim texnologiyasini rivojlantirish esa jamiyat madaniy saviyasini va uning iqtisodiy qudratini shakllantirishga olib keladi.

**O`qitish texnologiyasi ta'limning faoliyatini, bilimlarni mehnat jarayoniga tadbiq etishni ta'minlaydi, pedagogning ongliligini qolipga tushiradi, uning jadal harakat kilishiga va hayot yo`liga ta'sir ko`rsatadi.**

Kasbga o`qitish texnologiyasi bo`lsa u shaxsni intizom, iroda va ixtisoslikka bo`lgan qiziqishini yuzaga keltiradi. Mutaxassisga bo`lgan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari pedagog va talabaning hamkorligiga, psixologik – pedagogik shart sharoitlarni amalga oshirishga imkon beradi.

O`qitish texnologiyalari fani, ishlab chiqarish hamda o`quv pedagogik jarayon orasida joylashib, kasbiy didaktik tayyorgarlik tizimidagi bilimlarning mustaqil sohasi bo`lib, u o`qitish, didaktika nazariyasi va amaliyoti bilan uzviy boglangan. Pedagogik texnologiyalarni shartli ravishda uch xil nuqtai nazardan qarash qabul qilingan: ilmiy, tavsifiy va amaliy.

Unga **ilmiy qarashda** o`qitishning maqsadi, mazmuni, metodlari ilmiy asoslanadi, pedagogik jarayon loyihalashtiriladi.

**Tavsifiy qarashda** rejalashtirilgan o`qitish natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarining ishtirokida algoritm jarayoni ishlab chiqiladi.

**Amaliy qarashda** esa PT jarayoni amalga oshiriladi. Ta'lim amaliyotiga qarab pedagogik texnologiyalarni uch xil ko`rinishga ajratish mumkin: **umumpedagogik, xususiy metodik va lokal** (modul); **Umumpedagogikaviy**

**texnologiya** ta'lim jarayonini to'raligicha ifodalaydi. **Xususiy metodik texnologiya** biror bir fan doirasidagi jarayonni tashkil qilish va amalga oshirish metodlari va vositalaridan iborat. **Lokal (modul) texnologiya** o'quv jarayonning maxsus bo'limlariga texnologiyani tadbiq qilish tushuniladi. Bu texnologiya xususiy didaktik va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratilgan.

Ma'lumki, PT talabalarning tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlar bilan tanishganlik va amaliy tayyorgarligiga mos bo'lishi kerak. Shuning uchun PT pedagog va talaba faoliyati bilan belgilanadi. Faoliyatning bu kabi turlari uchun pedagogik faoliyatning tuzilmasi yaratiladi.

**Pedagogik texnologiyaning tuzilmasi kontseptual asos, ta'lim jarayonining mazmuni va texnologik jarayondan tashkil topadi.**

Ma'lumki, PT ma'lum ilmiy konsepsiyasiga asoslanadi. Shuning uchun PT ning ilmiy konsepsiyasi psixologik, ijtimoiy-pedagogik va didaktik asoslardan tashkil topadi. Ta'lim jarayonining mazmuni uning umumiy va aniq maqsadlari va o'quv materialining mazmunlaridan iborat bo'ladi.

Texnologik jarayon esa, o'quv jarayonini tashkil etish, pedagog va o'quvchi faoliyatlaridan, o'quv jarayonini boshqarish, jarayonni boshqarish usullari, hamda o'quv jarayonining didaktikasini o'z ichiga oladi.

**Pedagogik texnologiyaning me'zonlaridan biri** boshqaruvga asoslanganligidir. **O'quv jarayoni didaktikani, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyihalash, undagi o'qitish metodlari va vositalarini o'zgartirib turishdan** iboratdir.

**PT ning samaradorlik mezoni ta'lim jarayoning aniq sharoitlarda olinadigan yaxshi natijalarni ko'zda tutadi.**

Pedagogning mahorati esa oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar: tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, izlanuvchi va muammoli o'qitish texnologiyalari, dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasi, kompyuterli axborot texnologiyasi va boshqalar hisobiga yaratiladi.

Pedagog olimlar pedagogik texnologiya sohasida oliy ta'lim muassasalari uchun ham talabalar o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishning ilg'or usullarini ishlab chiqmoqdalar. Masalan, amerikalik olim **R.Jeyn** va **L.Briggslar** pedagogik texnologiyada dars o'tishning quyidagi shaklini taklif etganlar:

- talabalar diqqatini jamlash;
- talabalarga dars maqsadini yetkazish;
- kerakli bilimlarni esda qoldirish va amaliy ko'nikmalarni egallash zarurligini uqdirish;
- talabada qiziqish uygotib, faoliyatga, harakat qilishga undaydigan o'quv materialini taqdim etish;
- talabaning javob harakatlarini ma'qullab, ragbatlantirib borish;
- talaba o'quv-biluv vazifasini o'zlashtirganidan xabardor bo'lib borish;
- talabalarning fikrlash faoliyatini boshqarish, bilim va ko'nikmalari mustaxkamligini ragbatlantirib borish.

Amerikalik olim **F.S.Keller** oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun pedagogik texnologiyaning individuallashtirilgan tizimini ishlab chiqdi. Keller usulining muhim belgilari quyidagilar:

- o'quv materialini mazmunini (oldin o'tilgan qismining mazmunini ham) talaba to'liq o'zlashtirib olishiga erishish;
- har bir talaba o'zining bilim o'zlashtirish tezligiga binoan alohida ishlashi kerak;
- ma'ruzadan talabalarga motiv hosil qilish va umumiy yo'naltirish uchungina foydalanish;
- o'quv-biluv axborotlarini bayon qilish uchun nashr etilgan o'quv qo'llanmalaridan foydalanish;
- o'quv-biluv materialining qismlarini talaba o'zlashtirib olganini aniqlashda yordamchi-assistent(aspirant, a'lochi talaba)lar kuchidan foydalanish.

Pedagogik texnologiyaning bu shaklida professor-o'qituvchi o'quv kursini bir necha bo'lim(modul)larga ajratadi, odatda, ularning soni o'quv materialining

hajmiga qarab aniqlanadi, ular darslikdagi boblarga teng bo'lishi ham mumkin. Har bir talabaga qanday o'qish uchun qo'llanma beriladi, unda bo'lim(mavzu)ni o'rganish maqsadi ko'rsatiladi, o'quv ishining ma'lum shakl-usullari tavsiya etiladi, nazorat va o'z-o'zini nazorat uchun savollar majmui keltirilgan bo'ladi. Ishlar tartibini, o'qish-o'rganish shaklini talabanning o'zi tanlaydi. O'zlashtirilgan bo'lim, mavzu bo'yicha imtihondan oldin har bir talabani yordamchi-assistent professor-o'qituvchi ishlab chiqqan aniq talab-mezonlarga binoan «o'tdi», «o'tmadi» shaklida sinovdan o'tkazadi. Sinovdan o'tmagan talaba yordamchi tavsiyasiga binoan o'quv materialini qo'shimcha ishlab chiqadi. Sinovdan o'tish keyingi bo'limni o'rganish uchun o'ziga xos ruxsatnoma hisoblanadi. Ma'ruzalar soni juda kam (bir semestrda 6 tadan oshmaydi). Keller texnologiyasi (rejasi) AQShdagi oliy ta'lim muassasalarida tabiiy-ilmiy fanlarni o'rganishda keng ko'llaniladi. Pedagogik tajribalar Keller rejasi an'anaviy ta'lim usuliga nisbatan samarali ekanini ko'rsatdi.

**Prof. B.G.Ziyomuhamedov** zamonaviy pedagogik texnologiya(ZPT) ga quyidagicha ta'rif bergan: «ZPT-bu jamiyat ehtiyojidan kelib chikib, oldindan belgilangan kishining ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayoni\_tizimi sifatida ko'rib, uning tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda

Ko'rsatgan ta'sirini nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan tadbiridir» [18].

**Tizim deb, tartiblangan, o'zaro uzviy bog'langan va birgalikda umumiy funksiyani bajaruvchi elementlar to'plamiga aytiladi.**

**Demak, ta'lim jarayonini bir tizim deb qarajak, uning tashkil etuvchilari (elementlari)ga quyidagilar kiradi: ta'lim maqsadi, o'quv maqsadlari (kutilayotgan natijalar), ta'lim beruvchi, tahsil oluvchi, ta'lim mazmuni, ta'lim metodi, ta'lim shakli, ta'lim vositalari, nazorat va baxolash. Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda sanab o'tilgan elementlardan birortasi**

e'tibordan chetda qolsa, noto'g'ri tanlangan bo'lsa, tizim ishlamaydi, demakki, ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadga erishilmaydi. Tizimning faoliyati uni tashkil etuvchi har bir elementiga va, o'z navbatida, har bir element bir-biriga chambarchas bog'liq.

O'qitish, yozish va tanqidiy fikrlash-UYoTF loyihasida tanqidiy fikrlash asoslarini bayon etishdan oldin modellashtirishgan mashg'ulot o'tkazish nazarda tutilgan. Bunday ketma-ketlikni saqlashdan maqsad tenglovchilarga yangicha yondashuvning, avvalo, ukituvchi «uzidan utkazib kurishlari»ni, sungra uning nazariy asoslarini uzlashtirishga kiritishlarini ta'minlashdan iborat.

Ko'rgazmali mashg'ulotning maqsadi-o'qitishning yangicha yondashuv va uslublari doirasida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini namoyish qilish, uning ishtirokchilariga faol bilim modelini taklif qiladi.

Ma'ruzaning davomida o'quv materialining har bir satr boshining mazmuni baholanib, xulosa varaqni chap tomoniga qalam bilan maxsus belgi qo'yib boriladi;

«u»-o'qitayotganingiz sizning bilgan va o'ylab turganingizga mos tushsa ;

«-»-o'qitayotganingiz sizning bilgan va o'ylab turganingizga qarama-qarshi bo'lsa;

«+□»-o'qitayotganingiz siz uchun yangilik bo'lsa;

«?»-o'qitayotganingiz tushunarli bo'lmasa yoki bu haqda siz batafsilroq ma'lumot olishni xohlasangiz.

Siz bu belgilar yordamida axborot to'g'risidagi o'zingizni yaxlit tasavvuringizni aks ettirishingiz lozim. Bu usul o'quvchiga yangi axborotni noma'lum yoki yangi, tushunarsiz yoki e'tiroz bildirish lozim bo'lganlarga ajratib baholash imkonini beradi.

Shunday qilib, o'quvchilar axborotni uzlashtirishga ongli ravishda yondashishlari uchun ular matnni tushunish jarayonini kuzatib berish hisobiga matn mazmunini uzoq muddat ongda shakllantirishga bu esa uzlashtirishning ortib borishiga olib keladi.

Mustaqil o'qishga yakun yasab, **o'qituvchi talabalarga o'qiganlari to'g'risida o'ylash va uzlarining qo'ygan belgilari bo'yicha matn to'g'risidagi fikrlarni juftlikda muhokama qilishni taklif qiladi.** Shundan so'ng o'qituvchi «Oldindan aytilgan qaysi fikrlar tasdiqlanadi» «Qanday yangi axborotlarni o'qidingiz» «Belgilab qo'ygan o'qishning oddiy o'qishdan qanday farqi bor», «Nima uchun qo'yilgan belgilar yangi axborotni puxtaroq egalashga imkon beradi»-kabi savollar bilan murojaat qiladi.

**Muhokama natijasida xulosalar yasaladi.**

**Bu xulosalar natijasi o'qituvchiga ishonch bildirsa, u o'qituvchiga ishonchning mo'jizasi bo'ladi.**

Hozirgi paytda **tanqidiy fikrlashni** qo'llash va bunga o'rgatishga fanlararo dastur sifatida katta e'tibor berilmoqda.

UYoTF (o'qitish, yozish va tanqidiy fikrlash) o'qitishning universal asoslari tizimi sifatida unda o'qitishning interaktiv usullarining keng miqyosda qo'llanishi va tanqidiy fikrlashning samarali rivojlanishiga imkon beradi.

**Tanqidiy fikrlashga o'rgatish kadrlar tayyorlash milliy dasturini bayon etilgan yuqori umumiy va kasbiy madaniyatli, ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z urnini topa olish malakasiga ega bo'lgan, istiqboliy vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirish vazifasini hal qilishga ham to'la-to'kis mos keladi.**

Tanqidiy fikrlashning muhimligini amerikalik pedagog J.Dyui quyidagicha ta'riflaydi: «Insonning sharoitlar va tajriba natijalariga nisbatan tanqidiy fikrlashgina shaxs istagi va qiziqishlarni to'g'ri yo'lga soladi».

Tanqidiy fikrlash-goya va imkoniyatlarning ijodkorlik bilan uyg'unlashuvi, kondensiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta ko'rishdek murakkab jarayon. Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtda ro'y beradigan jarayon ham bo'lib, hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash-o`qitish predmeti emas, balki o`qitish natijasidir. Bu g`oyalarni va ularning ahamiyatini ham ko`p fikrlilik nuqtasi nazaridan ko`rib chiqish hamda ularni boshqa g`oyalalar bilan taqqoslashdir. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo`lib, unda tahlil va taqqoslash, izohlash, qo`llash, tortishuv, faollik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e`tibor beriladi.

**I.Agapovning** aytishicha, tanqidiy fikrlash-o`quvchilarda matn bilan ishlash malakasini rivojlantirish, ogzaki va yozma nutqning barcha ko`rinishlarini egallash, muayyan matn bo`yicha tengdoshlari bilan fikr almashuv (muloqot malakalari, guruh bilan ishlash malakalari) ga yo`naltirilgan pedagogik texnologiyadir.

Tanqidiy fikrlash o`quv xonasidagi muhitni o`zgartirib, unga tuskinlik tusini berish, mashg`ulotlarni esa o`qituvchi va o`quvchi uchun quvonchga aylantirishdir. Bunday texnologiya ko`p fikrlilik va matnni sharhlash nuqtai nazarining ko`pligi va bilish jarayonining reflektivligi, madaniyatni zamonaviy tushunish kabi g`oyalarga asoslanadi. Shaxs qadriyati g`oyasi va uning rivojlanishi, o`z-o`zini anglashi va ro`yobga chiqarishi uchun qulay sharoit yaratishning so`zsiz ustuvorligi eng muhim bo`lib hisoblanadi.

**Tanqidiy fikrlashning tasdig`i sifatida fikrlar:**

1. Yangi vaziyatlar uchun qo`llanilayotgan samarali uzluksiz ta`lim biz uchun axborot va g`oyalarning tushunarli bo`lishi muammosini tashkil qiladi.

O`quvchilar axborot va g`oyalarni faollik bilan o`zlashtirgandagina eng yuqori natijaga erishishi mumkin (Anderson).

2. Fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli strategiya (shakl)lari qo`llanilgandagina o`qish jarayoni muvaffaqiyatliroq bo`ladi. Bunday strategiyalar o`quv jarayoni ongliroq bo`lishini ta`minlaydi (Polinskar va Braun).

Bubering fikricha «bu tarbiyadagi shunday muvaffaqiyatki, unda **shaxs tug`iladi**, inson ma`naviyati sirli tarzda shakllanib boradi, o`quvchi o`qituvchi bilan hamkorlikda hayot sirlariga tushunib yetadi.

Oraliq yakun yasashda o`qituvchi tinglovchilarda savollar bor–yo`qligini aniqlaydi. Tushgan savollarga boshqa tinglovchilarning javob berishini iltimos qiladi, so`ngra barchaga quyidagi savollarni beradi;

Sizning dastlabki fikringiz Buber nuqtai nazari bilan qay darajada mos tushdi?

Sizni eng ko`p hayratga solgan narsa nima?

Nima sizga ma`qul bo`ldi ?

Nimalarga e`tirozingiz bor?

Bundan biz qanday xulosa qilishimiz mumkin?

Siz buni amalda qo`llay olasizmi?

Ma`ruzaning yakuniy qismida o`qituvchi va o`quvchi munosabatlari erkin bo`lishi kerak. O`qituvchi ma`naviyat zinapoyasida o`quvchiga nisbatan bir pog`ona yuqori turadi. Uning ustunligi va obro`si ana shundan kelib chiqadi. O`qituvchining aynan mana shu obro`sining tan olinishi, Buber yondashuvining an`anaviy va zamonaviy pedagogikada mustahkam shakllanib qolgan yondoshuvlardan afzalligini ko`rsatadi.

**Tanqidiy fikrlashning asosini** quyidagi uch faza tashkil qiladi: da`vat, anglash, mulohaza (DAM).

**Da`vat** fazasining ahamiyati shundan iboratki, unda yangi bilimlarni, o`zi mustaqil tanlagan maqsad uchun ishlatish o`quvchida kuchli bo`ladi.

**Anglash**-ifodali fikrlashning ikkinchi fazasi hisoblanadi. Unda yangi axborot da`vat fazasida faollashtirilgan axborot bilan bog`lanadi. Yangi o`quv materialining tushunilishiga erishish bu fazaning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Bu fazada o`z tushunchalarini kuzatib borishi muhimdir. Subyektning ichki jarayonlari va holatlarini o`zi tomonidan bilib borishi refleksiya (orqaga qaytish) deyiladi.

**UYoTF** ning uchinchi fazasi **mulohaza qilishdir**. Bu fazada bilimlar mustahkamlanadi va o`rganilayotgan masala oldingi fazalarga nisbatan to`laroq tasavvur shakllanadi. Talaba o`z o`quv maqsadiga erishgandagina bunday o`zgarishlar sodir bo`lishi mumkin. Bu talabanning yangi g`oya va axborotlarni o`z so`zi bilan ifodalay olishida aks etadi. O`quvchilar o`zlariga ko`prok yoqqan narsani yaxshiroq eslab qoladilar. Bunday tushunish uzoq muddatli ta`sirga ega bo`ladi (Pirson va Filding)

Stil, Moredis va Templar UYoTF asoslari (da`vat, anglash, muloxaza) o`qituvchiga shunday sharoitlar yaratadiki, natijada u quyidagilarni uddalaydi, deb hisoblaydilar:

- o`quvchilarning fikrlashini faollashtiradi;
- o`quvchilar maqsadini ajratadi;
- faol munozaraga imkon yaratadi;
- faol o`quv faoliyatini ta`minlaydi;
- o`zgarishlarini ragbatlantiradi.
- o`z-o`zini ro`yobga chiqarishga imkon beradi;
- tanqidiy fikrlashga imkoniyat yaratadi.

Tanqidiy fikrlashga o`rgatish ma`lum vaqt talab qiladi. Bu vakqni ixtiyoriy fanga oid vazifalarni o`rganishda tanqidiy fikrlash orqali o`quv materialini puxtaroq o`zlashtirishga erishish yo`li bilan to`plab borish maqsadga muvofiq.

**Prof. U.K.Tolipov** o`z shogirdlari Bilan «O`quv tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish» nomli qo`llanma nashr ettirdi. Unda ijtimoiy-gumanitar hamda tabiiy fanlarni o`qitish, shuningdek, tarbiyaviy ishlarni texnologik yondashuv asosida tashkil etish masalalari xususida so`z yuritiladi [31].

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro`yobga chiqarishning birinchi bosqichidan boshlab pedagogika ta`lim yo`nalishi, o`qituvchi tayyorlash yo`nalishida ta`lim oluvchilar «Yangi pedagogik texnologiyalar» fanini umumkasbiy fan sifatida, xudi shuningdek, magistrarga «Yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat» fanidan ma`ruzalar o`tilmoqda. Umumiy

o`rta ta`lim maktabi, kasb-hunar kolleji o`qituvchi pedagogik xodimlarini texnologik tayyorgarligini oshirish maqsadida malaka oshirish tizimida ham pedagogik texnologiyalar fani buyicha ma`ruzalar o`qish yo`lga qo`yilgan.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ruyobga chikarishning ikkinchi boskichida ilgari bajarilgan ilmiy pedagogik, tashkiliy ishlar tufayli ilmiy muassasalarda, oliy ta`lim muassasalarida Yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chikarish muammosiga, kizikish bir muncha kuchaydi. Natijada **B.L.Farbermen** «Ilgor pedagogik texnologiyalar»[33], kitobini, **Saidaxmedov N.S.** «Yangi pedagogik texnologiyalar»[41] va x.k.lar kabi kitob va o`quv o`qllanmalarini nashr ettirdilar.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida yozilgan dissertasiyalarda xam pedagogik texnologiyalarni qo`llab, ta`lim-tarbiya samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilina boshlandi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqishga bag`ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar muntazam ravishda o`tkazila boshlandi. O`z-o`zidan ravshanki, o`qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etilishi darsliklar va o`quv qo`llanmalarni yaratuvchilardan boshqacha ilmiy metodik yondashuvni talab etadi.

Zamonaviy o`qitish texnologiyalarini tadbiiq etish orqali biz maxsus fanlar darsliklarining yangi avlodini yaratish muammolarini ketma-ket va aniq yechish imkoniyatiga ega bo`lamiz. Maxsus fanlardan o`quv adabiyotlarini yaratish va o`qitish metodikasiga doir o`tkazilgan izlanishlar shuni ko`rsatadiki, o`quvchilarda modulli o`qitish texnologiyasini qo`llash yaxshi samara beradi.

Modulli o`qitish texnologiyasiga bag`ishlangan **I.B.Borodino, M.I.Maxmutov, S.A.Samaylov, G.K.Selevko, N.X.Avliyoqulov**[8-9] kabi pedagog olimlarning ilmiy tadqiqotlarini o`rganish natijasida, modulli o`qitishning mohiyati, tamoyillari va moduli texnologiya asosida nazariy va amaliy mashg`ulotlarini o`tkazish usullari kabi masalalar yoritilgan.

Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirish muammolari ustida pedagog olimlardan **N.Azizxo`jayeva, B.Farberman, U.Nishonaliyev, N.Saidaxmedov, M.Ochilov, B.I.Muronov, N.Shodiyev** va b.q.lar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

**N.N.Azizxo`jayeva** O`zbekiston Respublikasining uzluksiz ta`lim tizimi o`quv-tarbiyaviy jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etish va o`rganish maktabini yaratdi. N.N.Azizxo`jayeva tomonidan tashkil etilgan innovatsiya texnologiyalari markazi ko`plab oliy ta`lim muassasalari, o`rta maxsus, kasb-hunar kollejlari o`qituvchilariga yangi pedagogik texnologiyalarni o`zlashtirishiga imkoniyat beradi.

N.N.Azizxo`jayevaning “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”[11] nomli o`quv qo`llanmasida : Hozirgi davr o`quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish bilan xarakterlidir.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta`lim texnologiyalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish, pedagogik innovatsiyalar, mualliflik maktablari va yangi texnologiyalarni eksperiment qilish bilan bog`liqdir. Bu tajribalar muayyan tizimni ishlab chiqish va umumlashtirishni talab etadi.

Pedagogik texnologiyaga yaxlit hodisa sifatida qaraladi. Texnologiyaning interfaol sifatlari, tarkibiy qismlari, tuzilmasi, funksional tasnifi, kommunikativ xususiyatlari, tarixiyliigi va uzviyligi tadqiqqilinmoqda.

“Texnologiya”, “Pedagogik texnologiya” tushunchalari hamon tadqiqotlar bo`lishini taqozo etadi. Pedagogik texnologiyalar tasniflarini

asoslash, texnologiya turlari mazmunini yoritilishi, bu texnologiyalarni o`quv jarayoniga tadbiiq etish yo`llarini belgilash ta`limning barcha bosqichlarida uning samaradorligini oshirishga imkon beradi.

**M.Ochilov, N.Ochilova** ta`lim muassasalari amaliyotida ta`limning innovatsion pedagogik texnologiyalari va interfaol usullarini qo`llash shu kunning dolzarb muammosiga aylandi [29].

Ma'lumki, pedagogik texnologiya tizimli, texnologik yondashuvlarga asoslanadi. Tizim atamasi bo'laklardan tuzilgan yaxlit bir narsa yoki hodisa degan ma'noni bildiradi. Pedagogik tizim-pedagogik texnologiyaning asosi, zamini hisoblanadi. Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv –talabning bilim o'zlashtirishini qulaylashtirish maqsadida, avvalo, o'quv materialini (axborotni) bir-biri bilan o'zaro bog'liq qismlarga, bo'laklar (O'quv elementlari)ga ajratishni, so'ngra ta'limdan mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan o'quv-biluv faoliyatini (harakatlarni, amallarni) ketma-ket, bosqichma-bosqich, izchil amalga oshirishni, loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni talab etadi. Bu pedagogika faninig qonuniyatlaridan biridir, ta'lim texnologiyasiniqo'llash uchun, avvalo, darslik va o'quv qo'llanmalarini pedagogikaning ana shu talabi (qonuniyati) asosida qayta ishlab chiqish kerak.

Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyalarni rejalashtirish muammolari ustida ilmiy izlanish olib borayotgan yana bir pedagog olim prof. **N.Shodiyev** "Yangi pedagogik texnologiyalar" [35] o'quv-uslubiy qo'llanmasi nashr ettirilgan. Ushbu uslubiy qo'llanmada yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishning va ulardan foydalanib nazariy, tashkiliy-pedagogik va va amaliy jihatlari bo'yicha Respublikamizda olib borilayotgan ishlar; yangi pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, respublikamiz ta'lim muassasalarida to'plangan ilg'or pedagogik texnologiyalar elementlari va tajribalarni joriy etish bo'yicha ishlayotgan o'qituvchining faoliyatlari yoritilgan.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayoni va uning sifatini boshqarishga oid tushunchalar kun sayin takomillashib boradigan, ilm-fan, ta'lim-tarbiya va kasbning xususiyatlariga mos holda qo'llanadigan bo'lmog'i lozim. Bunday yondashuvlar ta'lim-tarbiya jarayoning oqilona va sifatli olib borilishiga, yangi fikrlar bilan boyishiga hamda natijalarni xolisona baholashga yordam beradi.

## II. BOB. OLIY TA'LIM JARAYONIGA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI

### 2.1. Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llash

Yuqorida ta'kidlanganidek, respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ma'lum tajriba to'plangan.

Bu yerda biz klaster, sinkveyn, intervyu, aqliy hujum, ven diagrammasi kabi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni pedagogika, ijtimoiy fanlarni o'rganishga qo'llash bilan bog'liq masalalarni qaraymiz.

**Klaster** –inglizcha so'z bo'lib, bosh, bir shingil popuk ma'nosini anglatadi. Bu matnni ma'noli birlarga ajratish va ularni bir bosh uzum shaklida joylashtirishdir. Mazkur ta'lim texnologiyasi odatda ma'lum bir mavzu bo'yicha erkin va ochiq o'ylashga yordam beruvchi strategiya bo'lib, fikrlashning chiziqli shaklidir. Bu usuldan fikr bosqichida ham foydalanish mumkin.

O'rganiladigan mavzu materiali mazmunini klasterlarga ajratish oson:

-bir varaq qog'oz yoki doskaning o'rtasiga tayanch (asosiy so'z, tushuncha yoki risola )ni yozib qo'yish;

-mavzu bo'yicha xayolingizga kelgan barcha tayanch tushuncha va iboralarni yoza boshlang;

-tayanch tushuncha va iboralarni eslashingiz bilan ular orasidagi bog'lanishlarni aniqlash. Xatoga yo'l qo'yish haqida bezovta bo'lmang;

-mashg'ulotda bajarilgan vaqt davomida xayolingizga kelgan barcha fikringizni yozing.

Klaster interfaol ta'lim usuliga ajratish egiluvchan bo'lib, uni mashg'ulot maqsadiga muvofiq ravishda akadem guruhda ham yakka tartibda ham amalga oshirish mumkin.

Yuqorida bayon qilinganlarga asoslanib, oliy o'quv yurti pedagogika va pedagogika tarixi fanlari dasturlari bo'yicha "Didaktika (ta'lim nazariyasi)"(1-chizma), "Ulug'bekning ilm-ma'rifat sohasidagi xizmatlari, uning davrida ta'lim-tarbiya tizimi"(2-chizma) kabi bo'lim, mavzularini tarmoqlash asosida o'rganish imkoniyatlarini keltiramiz.

Ma'lumki, didaktika, ya'ni ta'lim nazariyasi ta'lim jarayoni tushunchasi va mohiyatini, ta'lim prinsiplarini, maktab ta'limining mazmunini, metodlarini, tashkiliy shakllarini hamda ta'limning didaktik vositalarini o'z ichiga oladi. Ta'limning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.

Maktab ma'lumotining mazmuni (TM) davlat ta'lim standartlari(DTS), o'quv rejasi, namunaviy fan dasturi va o'quv darsliklari orqali belgilanadi.

Didaktikaning prinsiplari barkamol avlodni tarbiyalashning maqmad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qitish va o'qitish jarayoni xarakteri, yo'nalishi, o'quvchilar tomondan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarini o'z ichiga oladi.

Ta'lim prinsipi (TP) o'qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Endi, eng muhim didaktik prinsiplarni sanab o'tamiz.

-ta'limning ilmiylik prinsipi;

-ta'limning muntazamlilik va izchillik prinsipi;

-ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi;

-ta'limda nazariyaning amaliyot bilan birligi prinsipi;

-ta'limda onglilik va faollik prinsipi;

-ta'limning ko'rsatmalilik prinsipi;

-ta'limda bilimlarni puxta va mustahkam o'zlashtirish prinsipi;

-ta'limda o'quvchilarning yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish prinsipi va h.k.

Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida qo'llanib kelinayotgan amaldagi **o'qitish metodlari (O'M)** asosan uch guruhga bo'linadi:

-o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodlari;

-kuzatish va ko'rsatish metodlari;

-amaliy mashg'ulotlar metodlari.

Mazkur o'qitish metodlari o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'linadi.

### **1.Ko'rgazmali metodlar:**

1a. Namoyish, ko'rsatish

1b. Kuzatish

1v. ekskursiya

### **2.Og'zaki metodlar:**

suhbat, hikoya, tushuntirish, kitob bilan ishlash, maktab ma'ruzasi.

### **3.Amaliy metodlar(AM):**

3a. Labaratoriya ishi

3b. Amaliy ishlar

3v. Mashqlar

### **Ta'limni tashkil etish(TSh) shakllari.**

Dars-o'quv ishining asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi.

Mamlakatimizda eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilardan iborat:

-yangi bilim beruvchi va bilimlarni dastlabki mustahkamlovchi dars;

-bilimlarni umumlashtiruvchi-takrorlash darsi;

-ko'nikma va malakalarni (KM) shakllantiruvchi va mustahkamlovchi dars;

-bilimlarni tekshirish-nazorat darsi;

-aralashgan dars;

-ekskursiya darsi;

-o'quv ustaxonasi va maktab tajriba yer maydonchasida olib boriladigan mashg'ulotlar.

Hozirgi kunda maktablarimizda yuqorida ko'rsatilganlar bilan bir qatorda ta'limning noan'anaviy shakllari ham qo'llanilmoqda. Ular qatorida:

Bahs-munozara darslari;  
Didaktik o'yinli darslar;  
Ilmiy anjuman darsi;  
Uchrashuv darsi;  
Sayohat darslari va h.k.

Ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishda ta'lim vositalari (TV) muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning 6 ta turi: matnli vositalar; tasvirli vositalar; audio vositalar; yordamchi (jihaz) vositalar; modeli vositalar; real vositalar mavjud.

Matnli vositalar – ma'lumot olish va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun:

- o'quv dasturlari;
- maxsus adabiyot(darslik);
- tarqatma materiallar;
- imtihon va nazorat varaqalari;

Tasvirli-umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun:


- fotosuratlar;
- eskiz, chizma, sxemalar;
- ramziy tasvirlar, reja, jadvallar, simvollar;
- diagramma va grafiklar;

Audio-jarayonlar va ishlash mexanizmlari to'g'risida tasvir va ovoz orqali tasavvurlarni vujudga keltirish:

- videofilmlar;
- kompakt disklar;
- audio kassetalar.

Yordamchi (jihaz)-tasvir va matnli yozish va saqlash:

- doskalar (oq doska, magnit doskasi);
- pinbord doskasi;



ДТС – давлат таълим стандартлари  
 TP – ta`lim prinsiplari  
 TM – ta`lim metodlari  
 TSH – ta`limni tashkil etish shakllari  
 TV – ta`lim vositalari

1-sxema. Pedagogika fanida "Didaktika" mavzusini tarmoqlab o`rganish.

projektorlar, videoprojektor doskasi;

-kodoskop;

-videomagnitafon, kamera;

-kompyuter.

Modelli – o'rganilayotgan obyektning modeli orqali u haqda tasavvur hosil qilish:

-modellar;

-maketlar.

Real-o'rganilayotgan obyektlar haqida real tasavvurni vujudga keltirish:

-asbob-uskunalar;

-stanoklar;

-yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlar.

Endi "Pedagogika tarixi" fani dasturiida ko`zda tutilgan "XIV-XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar" bo`limining "Tabiiy fanlarni o`qitishning rivojlanishi, Ulug`bekning ilm-ma`rifat sohasidagi xizmatlari, uning davrida ta`lim-tarbiya tizimi" mavzusi klasterini ishlab chiqishni qaraymiz.

### **Ta`lim mazmuni:**

Arabcha 32 harfni yodlatish,

Abjad hisobi, haftiyak, Qur`oni Karim, hadis, chor kitob, astronomiya, arifmetika, algebra, geometriya, tibbiyot, geografiya.

**Ta`lim tizimi:** qorixonalar, boshlang`ich ta`lim.


**Madrassa ta`limi:** kichik madrasa, o`rta madrasa, katta madrasa.

**Ulug`bek madrasasi:** madrasa bosh mudarrisi, birinchi madrasalar.

**Ulug`bek rasadxonasi:** hisoblash markazi, "Ziji jadidi Ko`ragoniy" asari, "Ziji jadidi Ko`ragoniy" asarini yuqori baholab, uni tarjima qilgan olimlar: J.Grivs, J.Boku, P.Paplas.

**Ulug`bekning Samarqand akademiyasi:** tabiiy-matematik fanlar: Astronomiya, arifmetika, algebra, geometriya, tibbiyot, geografiya.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: tarix, falsafa, mantiq, adabiyot, san`at.



2-sxema. Pedagogika tarixi fanidan Ulugbekning ilm-marifat sohasidagi xizmatlarini tarmoqlab o'rganish

Endi "Pedagogika va psixologiya" ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga muvofiq ijtimoiy-gumanitar fanlarni shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida o'rganishga o'tamiz.


Ushbu maqsadda "Boshlang'ich ta'lim va sport" ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan ijtimoiy-gumanitar fanlar dasturlarida ko'zda tutilgan «Tasavvuf va uning tariqatlari» (falsafa), «...Tasavvuf estetikasining vujudga kelishi...» (Estetika). «Tasavvufning axloq falsafasi sifatidagi mohiyati (G'azzoliy, Rumi) ... Temur va temuriylar davri axloqshunosligi va unda tasavvufiy yo'nalishlarning ustuvorligi; Navoiy va Jomiyning axloqiy qarashlari...» (Axloqshunoslik), «Tasavvuf ... va uning ma'naviy g'oyaviy ildizlari ... Tasavvufning asosiy oqimlari...» (Ma'naviyat asoslari), «Tasavvuf ilmi» (Pedagogika) kabi mavzularning o'zaro integratsiyalashuvchi; tasavvuf olamida Yassaviya, Naqshbandiya, Kubroviya nomlari bilan olamshumul shuxrat topgan tariqat maktablarining tamal toshini Yusuf Hamadoniy tomonidan Samarqandda qo'yilganligi, tariqat peshvosining faoliyati, yaratgan asarlari, g'oyalari; tayyorlagan shogirdlari haqidagi ma'lumotlar bilan qo'shib o'rganishda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish mazkur tariqatning mazmun-mohiyatini-talabalar tomonidan yanada chuqur o'zlashtirilishida hamda ularda ma'naviyatni shakllantirish bilan bogliq. masalalar muhokama qilishga o'tamiz.

Ma'lumki, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan hisoblangan klaster (fikrlarni tarmoqlanishi)-pedagogik strategiya bo'lib, u biron mavzuni o'rganishdan avval talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirishda hamda kyengaytirishda asqotadi. U shuningdyek, seminar mashgulotlarida talabalarga nazariy materiallarni mustaxkamlash, chuqur o'zlashtirish, umumlashtirish hamda mazkur materiallarning muhim jihatlarini ko'z oldiga keltirishga, tasavvur qilishga imkon byeradi. Bunda proffessor-o'qituvchi mavzuga taalluqli bo'lgan asosiy fikr, g'oya, tushuncha, ma'lumot va hakoza savollarni mantiqiy ketma-ketlikda talabalarga havola qiladi va ularning mazkur savollarga bir-birini to'ldiruvchi, boyituvchi fikrlarni bildirishlariga asosiy e'tiborlarini qaratadi, ya'ni pyedagog

ta'lim jarayonining kuzatuvchisiga (faqat, juda zarur bo'lganda talabalarning bildirgan fikrlarini tuzatishda aralashadi) aylanadi. Yuqorida ko'rsatilgan mavzular asosida ishlab chiqilgan "Yusuf Hamadoniy va Movaraunnahr va Xurosonda Tasavvufning yoyilishi va yuksalishi" mavzusi bo'yicha ishlab chiqilgan klaster \ (3-sxema) da profyessor-o'qituvchi talabalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilishi mumkin:

"Movaraunnahrda tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi va kamol topishida Yusuf Hamadoniyning muborak nomi nimalar bilan bog'langan?; «Kimlarga so'fiylik hirqasini kiydirgan?», "Hamadoniyning yurtdoshlarimizga sufiylik ta'limotini o'rgatganiga Alisher Navoiy qanday munosabat bildirganlar?;.. Tasavvuf yo'lida Yusuf Hamadoniy shogirdlarini qaysi g'oyalarda tarbiyalagan?; Tasavvufning yetuk peshvolari -Ahmad Yassaviy, Xo'ja Ahrori Vali va boshqalarga Alisher Navoiy qanday baho byergan? Alishyer Navoiyning o'z mazmun-mohiyati bilan VIII-XV asrlar islom mintaqa ma'naviyati takomiliga yakun yasagan so'nggi uch asarining nomlarini ayting; Islom va Xristian dunyosi kishilarining o'z ichki ruhiyatidagi turlicha xurofotlarni yengib o'tib, beg'araz va fidoyi mehr asosida o'zaro yaqinlashuvlari mumkinligini tushuntiring; mintaqa bo'ylab sochilib ketgan turkiy qavmlarning yaxlit ma'naviyatini saqlab qolish, ma'naviy umumiylikka intilishni Alisher Navoiy qaysi asarida asoslab bergan?; Alisher Navoiy nima uchun Bahouddin Naqshbandiyni Uvaysiy eydi? Uni Abdiholiq G'ijdivoniyning ruhiy quvvati tarbiyalaganmi; va hakoza.

Prezident I.A.Karimov "Fidokor" gazetasi muxbiri bilan suhbatda "Odamlarimizning, avvalambor yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustah, kamlash, irodasini baquvvat kilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning zarurati haqiida so'zlab, buning uchun ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobosining muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmatlash fazilatlarini qaror toptirish lozimligini uqtirgan edi". Tasavvuf ilmini egallash va amaliy faoliyatda unga rioya qilish ma'naviy shakllantirilganlik myezonlaridan biri bo'lishiga qaramay tadqiqotimiz davomida



### 3-sxema. Tasavvuf ta'limotining tarqalishi

o`tkazilgan tajriba-sinovlar natijasi shundan dalolat beradiki, ko`pchilik talabalar shariat va tariqat tushunchalarning mazmun-mohiyatini, umumiylikni va ular o`rtasidagi farqlarni farqlay olmaydilar.

Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarida shariat va tasavvuf va ularning jamiyatimizdagi o`rni va ahamiyati xususida atroflicha tasavvurni shakllantirish ularning ma'naviy dunyoqarashini tarkib toptirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviyatimizga oid boy materiallarni talabalar tomonidan tez va oson uzlashtirilishi va ularning hotirasida uzoq vaqt saqlanishiga erishish maqsadida individuallashtirilgan o`qish texnologiyasidan foydalanish asqotadi. Bunda har bir talaba, har bir kichik gomogen guruh o`q uv vositalari (kitoblar, ilmiy-metodik jurnallar, konferentsiyalar materiallari, gazetalar, kompyuter va h.k.)yordamida o`z imkoniyatlari, qobiliyatlari darajasida mustaqil ishlash orqali shariat va tasavvufga oid materiallarni yig`ishga jalb qilindilar, so`ngra to`plangan barcha materiallar akademik guruh talabalari tomonidan mustaqil tarzda o`rganildi. Shariat va tariqatning mazmunini umumlashtirishda va bir tizimga keltirish jarayoni talabalardan yetarli intellektual salohiyatni talab etishi munosabati bilan biz talabalar faoliyatiga, ular bildirgan fikr-mulohazalarga tuzatish kiritish yoki ularni qullab-quvvatlab boshqalarga tavsiya qilishda har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishga harakat qildik.

Ma`lumki taqqoslash –narsalar va hodisalarga tafovut hamda o`xshashlikni, tenglik va notenglikni topa olishda ifodalanidigan fikrlash operatsiyasidir.

**K.D Ushinskiy** o`quv materialini tushinib olish jarayonida taqqoslashning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta`kidlab, bunday degan edi; “... taqqoslash har qanday tushinish va fikrlashning negzdir.Dunyodagi hamma narsani faqat taqqoslash vositasidagina bilib olamiz” [48].

Quyida shariat va tarikatning o`zaro munosabatini qiyosiy o`rganishga oid materiallarni keltiramiz.

Yuqorida keltirilgan materiallardan ko`rinadiki, tasavvuf tadrijiy taraqqdiyotga ega bo`lgan ta'limot bo`lib, u axloqiy qoidalar, turmush tarzi

talablari yigindisi sifatida paydo bo'lgan va islomiy tasavvuf maqomini olgan. U islomiy qadriyat sifatida insonni poklanishga, mehr-shavqat, himmat va mardlik kabi fazilatlarni egallashga da'vat etadi. Boshqacha aytganda, tasavvuf o'z ijtimoiy-siyosiy qarashlarini shariatdan olgan.

### Tasavvufning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati. Shariat va tariqat o'rtasidagi munosabat

2-jadval

Shariat	Tariqat
Jamiyat	Tasavvuf-islom olamida keng tarqalgan. O'rta va Yaqin sharq mamlakatlari madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan diniy-falsafiy va ma'rifiy oqim. Tasavvufning eng birinchi namoyondasi, piri-paygambarimiz Muxammad (s.a.v.) bo'lganlar. Chunki ul zoti oliy insoniyatga «Go'zal xulqlarni kamolga yetkazish uchun yuborilganlar»
Islom shariat vositasida insonda go'zal xulqni tarbiyalaydi	Tasavvuf tariqatlar vositasida insondagi go'zal xulqni bosqichma-bosqich oliy kamolot darajasiga yetkazadi.
Namoz inson jismoniy va ruhiy salomatligining garovi sifatida unga ko'rkamlik, poklik nurini baxsh etadi. Islomning - 3 rukn inson jismini illatlardan xolos etadi, qalbini va ruhini osoyishta qiladi. Qadimda shariat ommaviy ravishda majburiy ta'lim turi sifatida urgatilgan. Shariat odobini hamma organishi shart, shunda u tartib-intizom bilan yashayotgan inson bo'ladi. Tariqat odobi hamma xam tugri kelavermaydi. Shariatda o'g'rilik qilib qulga tushgan odamning qo'li kyesiladi, sazon qilinadi. Shariat joriy va targ'ib etiladi.	Kurkamlik, poklik nuri baxsh etilgan. jismoniy illatlardan xolos bo'lgan, qalbi va ruhi osoyishta bo'lgan inson tasavvuf tariqatiga kirish uchun hozirlik ko'rishini ta'minlash islom shiari talablarini sidqidildan tukis bajarib yurgan inson kamolot darajasiga yetishi mumkin. Tariqat pyeshvolari o'zlarini jamiyatdan chyetga tortganliklarini, ularni uzoq dasht-cho'llarga, g'orlarga, chillaxonalarga fa'qatgina shariat vositasida kamolot pillapoyasiga qadam qo'ygan maxsus tolibi ilmlargina izlab borganlar Shayxlar ilmlarini pinxona tutishga urganganliklarini, murid tarbiyasidan ko'ra ko'prok o'zlarining botiniy ahvollaridan muntazam xabardor bo'lishga intilganliklarini; sokin gushalarda, xilvatda axli din bilan suxbatda bo'lganliklarini, tariqatning eng baland arajalariga, ya'ni oriflikka yetgan shayx kichik bir xato qilib qo'ysa, yana o'zining baland maqomiga eng quyi solih darajasiga tushib kolishini (Xuja Ubaydulloh Axror Vali) tariqatda bunday holga munosabat butunlay boshqacha bo'lib, u Alishyer Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarida «sufiy shayxlar shariat yuzasidan tariqat odobini maxkam tutadilar», dyeb ta'kidlangan. Tariqatning baland darajasiga, oriflikka yetgan shayx kichik bir xato qilib qo'ysa, o'zining baland maqomidan eng quyi — solih darajasiga tushib qoladi. Tasavvuf shayxlari sokin gushalarda, xilvatda ahli dil bilan suhbatda bo'lganlar. Ularning ta'lim-tarbiya vositasi asosan Shariat joriy va targ'ib etiladi suhbat bo'lgan. Tariqatga targ'ib qilinmaydi. Piri tariqat har bir muridning botiniy ahvolidan xabardor, uning va o'zining ma'naviy tarbiyasi bilan muttasil mashg'ul bo'ladi. Naqshbandiya ta'limotiga ko'ra bu dunyo, tabiat insonga uni obod qilish, yashnatish uchun byerilgan. Tasavvuf va tariqat odobini chuqr bilgan insonlar botini munavvar, poksiyrat va pokniynat, vatanparvar bo'lganligini, Kubroviya mazhabining asoschisi avliyo Najmiddin Kubroning mug'il bosqinlariga tengsiz jangda shahid bo'lganlarida kurish mumkin.

Ajdodlarimizning ma'naviy qarashlarida komil inson ma'naviy kamolotni to'rt bosqichini bosib o'tmogi lozimligi ko'rsatiladi, ya'ni **shariat, tariqat,**

**ma'rifat va haqiqat.** Demak, buyuk ajdodlarimiz nazdida ilmiy haqiqatga yetishmoq, uchun shariat va tariqatdan habardor bo'lishning o'zi kifoya emas, ma'naviy komil inson ma'rifatli, ilmi bulmog'i lozim. Ya'ni ziyoli inson o'z davrida ma'naviy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirishga harakat qilgan.

Talabalarni mafkuraviy hissiyotini uyg'otish va e'tiqodini yuksaltirish asosida ularning ma'naviy shakllantirishda milliy uzlikni teran anglab olish beqiyos manba' va omil bo'lishi mumkin. Milliy o'zlikning mohiyatini bilib olishning • hozirgi darajasida, ya'ni buyuk tariximizning hattoki, eng muxim jihatlari va ulug' ajdodlarimizning boy madaniy-ma'naviy myerosining juda oz qismini o'rganish imkoniyati juda cheklangan sharoitda talabalarni ularning hissiyoti va ruhiyatiga kuchli ta'sir qiladigan amaliy ishga-tasavvuf ta'limotining Yassaviy tariqati asoschisi Ahmad Yassaviy ma'naviyat xaritasini tuzishga, (Olloh ishqini kuylab ijod etgan musulmon dunyosida yashagan mutafakkirlarning davlatlar bo'ylab joylashini aniqlash kabi murakkab muammoni hal qilishga jalb qilinishi, ularda mustaqil va erkin fikrlashni, tashabbuskorlikni, mavjud muammolarni baxhs-munozara orqali yechishni namoyon qildi.

Toj Xo'ja ota, Said ota, Sulaymon ota (Ahmad Yassaviyning -.uchinchi xalifasi). Z.angi ota. Shams, Uzun Xasan ota, Said ota, Ismoil ota. Ishoq ota, Sadr ota, Badr ota Ali Shayx ota, Jalol Mavdud Shayx, Komil Shayx, Xodim shayx Xalil ota, Bobo Mochin (Axmad Yassaviyning muridi), Iqoni (ikkinchi .Ahmad Yassaviy), Ubaydullo, Jamol Shayx kabilar Yassaviy maslagida; hikmatlar yozib masjidlarda Kur'on hikmatlari, xadislar mazmunnga va tasavvuf g'oyalarini qo'shib kuylaganliklarini ta'kidlash bilan chyegaranamiz.

Talabalarda takrori yo`q, boy ma'naviy merosimizni milliy o`zligimizni anglashni yanada yuqori darajaga ko`tarish maqsadida biz Yassaviy ma'naviyati xaritasini tuzishga harakat qildik. Bunda biz Yassaviya tariqatining ma'naviy-axloqiy qoridalarini nafaqat Osiyoda balki jaxonning Afrika va Yevropa kabi qit'alarida joylashgan mamlakatlarda ham tarqalganligini namoyish qilishga urinib ko`rdik.Ulug' ajdodimiz Yassaviyning ma'naviy xaritasini tuzish kabi juda

murakkab muammoni talabalarga quyida bayon qilingan kichik-kichik muammolar tariqasida taqdim qilish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Ahmad Yassaviy tariqatini dunyo buylab tarqatgan yirik allomalar yashagan va ijod etgan qit'alar va mamlakatlarning nomlari hamda soni xaq;idagi savolga talabalar byergan to`liq javoblarda 17ta mamlakat, ya'ni: Qozog`iston, Tojikiston, O`zbekiston, Turkmaniston, Afg`oniston, Eron, Ozarbayjon, Turkiya, Bolgariya, Yugosloviya, H,indiston, Xitoy, Arabiston, Suriya, Iroq, Misr, Marokko, (FAS) davlatlari va 3 ta qit'a, ya'ni: Osiyo, Yevropa va Afrika qit'alari qayd kilindi.

Yuqorida bayon qilingan Yassaviy ma'naviyati bilan bog`liq, qiziqarli materiallar ijtimoiy-gumanitar fanlar o`qituvchilariga Axmad Yassaviy ta'limotini chuqur o`rganishni tashkil qilish bilan bir qatorda talabalarga milliy g`ururni uyg`otishga imkon beradi.

Shunday qilib yurtboshimiz ta`kidlaganidek, “Ma`naviyat insonga ona suti, ona namunasi, ajdodlar o`giti bilan singadi, ma`naviyat o`z halqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib olishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi” [4].

Keyingi yillarda respublikamiz ta'lim tizimiga **Sinkveyn** usuli tez sur`atlar bilan kirib bormoqda. “**Sinkveyn**” so`zi fransuz tilida “5 qator” ma`nosini bildiradi. U ma`lumotlarni sintezlash (bir butunlikga keltirish )ga yordam beradigan qofiyalanmagan she`r bo`lib, unda o`rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqyea, mavzu) to`g`risidagi axborot yig`ilgan holda, o`quvchi so`zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi.

Mazkur innovatsion ta'lim usuli talabalar faolligini oshiradi, ularning tanqidiy fikrlashini o`stiradi.

**Sinkveyn** tuzish-murakkab g`oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so`zlar bilan ifodalash uchun muhim bo`lgan malakadir.

**Sinkveyn** tuzish jarayoni mavzuni yaxiroq anglashga yordam beradi. Quyida uni tuzish qoidalarini keltiramiz.

**1-qator:** mavzu bir so`z bilan ifodalanadi(odatda “ot” tanlanadi).

**2-qator:** mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).

**3-qator:** mavzu doirasidagi sifat bilan ifodalanadi(3ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi).

**4-qator:** mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi(4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi).

**5-qator:** mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta so'z yoziladi(mavzuga sinonim so'z yoziladi).

Sinkveynlar quyidagi hollarda juda foydali bo'ladi:

-murakkb axborotni sintezlash uchun vosita sifatida;

-o'quvchilar tushunchalarining yig'indisini baholash vositasi sifatida;

-ijodni taqdim etilishining vositasi sifatida.

Yuqorida bayon qilinganlarni hisobga olib, "Pedagogika nazariyasi" faninig "Ta'lim", "Odob" hamda "Iqtisodiyot" tushunchalarining 5 qatorini tuzamiz.

"Ta'lim" tushunchasi sinkveyni:

**1-qator:** "Ta'lim",

**2-qator:** uzluksiz, ixtiyoriy, majburiy,

**3-qator:** o'rgatadi, yo'l ko'rsatadi, ruhlantiradi,

**4-qator:** hayotdagi eng yorug' chirog'!

**5-qator:** Bilim.

"Odob" tushunchasi sinkveyni:

**1-qator:** "Odob",

**2-qator:** go'zal, yaxshi.

**3-qator:** insonni bezaydi, ulug'likni ko'taradi, yashnatadi.

**4-qator:**inson odobi bilan go'zal.

**5-qator:**"Axloq"

"Iqtisodiyot" tushunchasi sinkveyni:

**1-qator:** "Iqtisodiyot"

**2-qator:** makro- va mikro-.

**3-qator:** rivojlanadi, inqirozga uchraydi, tiklanadi.

**4-qator:** hayotning ajralmas qismi

**5-qator:** zaruriyat.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko`rinadiki, talabalarni turli tushuncha, hodisa, jarayonlarning sinkveynini tuzishga jalb qilish ularning bilimlarini faollashuviga xizmat ʻiladi.

Keyingi yillarda ta'lim-tarbiyaning sifati va samaradorligini oshirishda "intervyu" metodidan ham foydalanilmoqda.

"Intervyu" – bu ta'lim – tarbiyaga doir masala yuzasidan olib boriladigan muloqot bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayonining dolzarb muammosi bo'yicha birlamchi, shaxsiy va hissiy ma'lumotni bir lahzada olish maqsadida uyushtiriladigan savol-javob tariqasidagi suhbat shaklida uyushtiriladi.

"Intervyu" ta'lim – tarbiya jarayonida zarur ma'lumotlarni boshqa metodlar bilan olish mumkin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.

Shu munosabat bilan talabalarning ekologik tayyorgarligi haqida bir lahzada ma'lumot to'plash maqsadida "Pedagogika" fanining "Ekologik tarbiya" mavzusi misolida "Intervyu" metodidan foydalanishni qaratmiz.

**"Intervyu" o'yini**

Mavzu: Ekologik tarbiya.

O'qituvchi vaqtni rejalashtiradi va talabalardan to'rt kishidan iborat ekspert guruhi tuzadi, qolgan talabalardan esa ikki guruhni tashkil etadi. Ya'ni :

1-guruh: "O'zbekiston" telekanali.

2-guruh: "Yoshlar " telekanali (eksperiment guruh).

1-guruh: "O'zbekiston" telekanali muxbiri "Ekologik tarbiya" bo'yicha quyidagi savollar orqali intervyu oladi:

1. Ekologiya deganda nimani tushunasiz?

2. Ekologik tarbiya deganda nimani tushunasiz?

3. Tabiiy boyliklardan haddan tashqari oshiqcha foydalanganda qanday oqibatlariga olib keladi?

4. Atmosfera havosining ifloslanishi nimaning natijasida deb o'ylaysiz?

5. Ekologik bilim nima?

6. Ekologik ta'lim va tarbiyani qachon boshlagan ma'qul deb o'ylaysiz?

7. Ekologik tarbiyaning maqsadi nima?

8. Havoning ifloslanishi qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi?

9. Muhammad alayhissalom daraxt ekish savobi haqida o'z hadislarida :  
“Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda, behosdan qiyomat qoim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham ulgursangiz, uni ekib qo'ying” so'zlarini qanday izohlaysiz?

10. Abu Ali ibn Sinoning “Dunyoda chang va tutun bo'lmaganida, odamzot ming yil umr ko'rishi mumkin edi”, - degan hikmatli so'zini izohlab bering!

2-guruh “Yoshlar ” telekanali muxbiri ham “Ekologik tarbiya” mavzusidagi tayyorlab kelgan savollari bo'yicha intervyu oladi:

1. Atrof-muhitning tozaligini ta'minlash deganda nani tushunasiz?

2. “Bog'ni boqsang bog' bo'ladi” maqolini izohlang?

3. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, A.Navoiy, Bobur Mirzolarning yaratgan bog'lari, obodonlashtirish ishlari haqida so'zlab bering?

4. Azon qatlami yemirilishi qanday oqibatlarni keltirib chiqarmoqda?

5. Hayvonot dunyosini asrab-avaylash haqida fikr yuriting?

6. “O'rmon sanitari” vazifasini o'tuvchi qanday hayvonlarni bilasiz va ushbu hayvonlarning qanday foydasi bor?

7. Biror jonzoatning qirilib ketishiga yo'l qo'yilsa, qanday vaziyatlar vujudga keladi?

8. Abu Rayhon Beruniy “Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi” so'zini izohlang.

9. Yer qimirlashi hodisasi nimaning natijasida sodir bo'ladi, deb o'ylaysiz?

10. Ichimlik suvini ayovsiz ishlatilishining oldini olish haqida nimalarni bilasiz?

O'qituvchi o'yin jarayonini kuzatib, talabalarning o'yin qoidasini buzmasliklarini nazorat qilib borishadi.

1-guruh “O‘zbekiston” telekanali muxbiri guruh a‘zolariga savollarga to‘g‘ri va to‘liq javob bergan talabalarni qizil yulduzcha bilan, o‘rtacha javob bergan talabalarni esa yashil yulduzcha bilan o‘qituvchi bilan birgalikda taqdirlaydi.

2-guruh “Yoshlar ” telekanali muxbiri guruh a‘zolariga savollarga to‘g‘ri va to‘liq javob bergan talabalarni qizil bayroqcha bilan, o‘rtacha javob bergan talabalarni esa yashil bayroqcha bilan o‘qituvchi bilan birgalikda taqdirlaydi.

Intervyu davomida talabalar guruhdoshlari bildirgan fikrlarni to‘ldirishlari yoki ularga e‘tiroz bildirishlari mumkin.

Intervyu nihoyasiga yetganda, so‘z ekspertlar guruhiga berildi. Ekspertlar ikkala guruh ishtirokchilari va muxbirlar yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarni aytib o‘tdilar. Talabalar o‘yin davomida yiqqan “yulduzcha” va “bayroqchalar” asosida ularni baholadilar.

So‘nggi so‘z o‘qituvchiga berildi. O‘qituvchi intervyu olgan muxbirlar hamda ekspertlarning mahoratini baholadi, o‘yinning yutuq va kamchiliklari haqida o‘z fikrini bildirdi. To‘garak davomida eksperiment guruh, nazorat guruhiga nisbatan faolroq qatnashishdi.

Endi pedagogika tarixi faninig “Sharq uyg‘onish davri...Abu Nasr Farobiy va Abu Ali ibn Sinoning umumpedagogik hamda didaktik g‘oyalari” mavzusini o‘rganish jarayonida “Ven diagrammasi” dan foydalanishni qaraymiz. Chunki, ushbu metod talablarning firklash qobiliyatini oshiradi, xotirani kuchaytiradi hamda u yoki bu mavzu ustida mustaqil ishlashga undaydi. U ikki mavzuninig umumiy va o‘ziga xos tomonlarini tez fikrlashga imkon beradi. Mazkur metod talabalarni hushyorlikka, sezgirlikka chorlaydi. Bu usul ikki doira shaklidagi aylana chiziqlarning qo‘shilishi holatida bo‘lib, uni pedagogika tarixi fanidan “Abu Nasr Forobiy va Abu ali Ibn Sinoning hayoti va pedagogik g‘oyalari” mavzularini o‘rganishga qo‘llash mumkin. Ushbu maqsadda ikki doira chizilib, olimlarning hayoti, mashhur asarlarning nomlari, soni, dunyoviy mashhurligiga oid manbalar, raqamlar, sanalar yoziladi. So‘ngra ikki doiraning qo‘shilishi natijasida o‘rtada


paydo bo'lgan bo'shliqda ulug' allomalarimizning pedagogika, axloqiy-odob, insonparvarlik va hokazo haqidagi fikrlari, g'oyalari bayon qilinadi.

Bunda talabalar 4-5 tadan guruhlarga, jami 15 tagacha ajratiladi. 1- guruh doiraning o'ng tomoni, 2- gurux doiraning chap tomoni, 3-gurux ikki doiraning qo'shilishi natijasida paydo bulgan bo'shliq ustida ishlaydi (4-sxema). Guruxdagi qolgan talabalar esa kuzatuvchilardir, ya'ni "Ven diagrammasi" ustida ishlayotgan 3 guruxning harakatlarini kuzatadilar. hatto baholashlari ham mumkin.

"Ven diagrammasi" turli xil g'oya, fikrlar kurashi va hujumini, munozaralarini keltirib chiqaradi. Talabalarni mustaqil fikrlashga va faollikka undaydi.

Interfaol metodlardan foydalanganda asosiy urg'u o'quvchilarni hamkorlikda ishlashlariga beriladi. Interfaol metodlar o'quvchida erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Qo'yida biz pedagogika tarixi fanidan Zahiriddin Muhammad Bobur mavzusini "Bilamiz \Bilishni xoxlaymiz \Bilib oldik" usuli (B\B\B jadvali) orqali o'rganishni qaraymiz (3-jadval).

Mazkur usul mashg'ulot jarayonida matnni tushunishni kuzatishdagi grafik tashkilotchi hisoblanadi. Bu usulga ko'ra talabalar guruxlarga bo'linishib ishlashi kerak. O'rganayotgan mavzu bo'yicha har bir gurux o'zaro hamkorlikda, kelishib jadvalning "Taxminan nimani bilamiz?" ustunini to'ldiradilar. Doskadagi birinchi ustunga esa barcha guruhlarning javoblari jamlanadi. Keyin har bir gurux a'zolari o'zaro kelishgan holda "Bilishni xoxlayman" ustuniga mavzu bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarini yozib chiqishadi. Doskadagi ikkinchi ustunga esa barcha guruhlarning savollari jamlanadi. Shundan so'ng talabalar mavzu yuzasidan matn(ma'ruza) bilan to'liq tanishib chiqadilar va jadvalning ikkinchi ustuniga qaytib, o'zlari bilishni xohlagan savollardan qaysilariga javob topganligini belgilab chiqishadi. Savollarga topilgan javoblar uchinchi "Bildik" ustuniga yoziladi. Talabalarni qiziqtirgan qaysidir savollarga javob chiqmay qolgan bo'lsa, uni o'qituvchi to'ldirishi yoki uyga vazifa sifatida bilib kelishni topshirishi mumkin.



**4-sxema. Pedagogika tarixi fanini “Ven diagrammasi” metodi orqali o'tishning tuzilmaviy ko'rinishi.**

<b>Siz matndagi ma'lumotlardan qaysilari to'g'risida bilasiz?</b>	<b>Nimalarni bilishni xoxlardingiz?</b>	<b>Nimalarni bilib oldingiz?</b>
<p>O'rta asr Sharq madaniyati va adabiyotining buyuk namoyandasi Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yil 14-fevralda Andijonda tug'ildi. Otasi Umarshayx Mirzo temuriy avlodlaridan bo'lib, Farrg'ona viloyatining hokimi bo'lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o'z davrining taniqli muallim va murabbiylari rahbarligida ta'lim va tarbiya oldi. Otasi Umarshayx 1495 yilda vafot etgach, 12 yoshida Zahiriddin otasining o'rniga taxtga o'tiradi. Bobur 1530 yilning 26-dekabrida Hindistonning Agra shahrida o'zi bunyod etgan go'zal maskan Zarafshon chorbog'ida vafot etdi.</p>	<p>Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-ma'rifat haqidagi qarashlarini, hayotiy va madaniy-ma'rifiy faoliyati, axloq-odob haqidagi qarashlari.</p>	<p>Zahiriddin Muhammad Bobur hokim sifatida butun Movarounnahrda markazlashgan davlat barpo etishga intildi. ammo, u bu niyatiga erisha olmadi. Andijonni Shayboniyxon egallagach, Zahiriddin Muhammad Bobur Afg'onistonga ketishga majbur bo'ldi. U Afg'onistonning Qobul va Badaxshon shaharlarida o'z hokimiyatini barpo etdi. So'ngra Hindistonga yurish boshlab, u yerda buyuk davlatga asos soldi. Bobur jahonga mashxur "Boburnoma" asarini yaratdi. Unda Movarounnahr, Xuroson, Hindiston xalqlari tarixi, urf-odat va an'analarini, mamlakat tabiiy lavhalarini aks ettirdi. U Xo'ja Ubaydullo Ahrorning "Volidiya" risolasini fors tilidan o'zbek tiliga, "Xatti Boburiy" risolasida arab alifbosini o'zbek tiliga tarjima qildi, aruz vazni va qofiya masalalariga bag'ishlangan "mufassal" asarini yozdi.</p> <p><b>Axloq-odob haqidagi qarashlari.</b></p> <p>Boburning axloq –odob haqidagi qarashlarida yaxshilik, vafodorlik eng go'zal fazilat sifatida ulug'lanadi, yomonlik jafokeltiruvchi illat ekanligi ta'kidlanadi:</p> <p>Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir, Har kimki jafokilsa, jafokeltiruvchidir. Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz, Har kimki yomon bo'lsa, jafokeltiruvchidir.</p>

Mazkur jadval pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabalariga pedagogika tarixi fanini o'rgatish jarayonida qo'llanildi. Mashg'ulot jarayonida talabalar hamkorlikda va kelishgan holda qiziqish bilan har bir ustunni to'ldirishdi. Mavzu yuzasidan o'zlari qiziqtirgan savollarni katta qiziqish bilan ikkinchi ustunga yozib chiqishdi. Matn bilan tanishtirilayotganda talabalar hushyor va sezgir turib, "Bildik" ustuniga topgan javoblarini chaqqonlik va faollik bilan yozib

chiqishdi. Javob topmagan savollari (Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-ma'rifat haqidagi qarashlari) uyga vazifa sifatida bilib kelish uchun topshirildi. Mavzu tez o'zlashtirilib, turli xil g'oya, fikrlar kurashi va munozaralarni keltirib chiqardi. Talabalarni mustaqil fikrlashga, faollikka va izlanuvchanlikka undashga ko'maklashdi.

### **Aqliy hujum-g'oyalarni generasiya kilish usuli, fikrlar xujumi.**

Bunda qatnashuvchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar: uni yechish uchun shaxsiy goyalarni ilgari suradilar (generasiya kiladilar).

Aqliy hujum usulida u kichik guruhlar bilan o'tkaziladi. Uning maksadi mumkin qadar katta miqdordagi goyalarni yechish, talabalarni aynan bir xil fikrlash ipersiyasidan xoli kilish. Bu usulning prinsipi shundan iboratki, unda goyalar kanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik g'oyalar ichidan bittasining muvaffaqiyatli bulish imkoniyati yaqindir.

#### Aqliy hujumda:

-Aytilgan gap hech kandy chegaralanmagan xolda baland ovozda gapirilishi lozim.

-har kandy fikrni aytish mumkin, fikrlar xech kandy motivlarsiz vazifaga karab aytiladi.

-g'oyalar tanqid kilinganda, ularni muxokoma kilish fikrlar va muloxazalar tugaguncha davom etadi. Xamma fikrlar kayd kilib boriladi.

Aqliy hujum o'tkazilib bo'lingandan so'ng vazifani yechish buyicha berilgan takliflar urganilib chikilishi lozim. Aqliy xujum ma'ruza, amaliy mashgulot (10-15 kishi) bilan utkaziladi. Bu usul katta guruxlarda xam (120 va undan ortik) yangi goyalarni ishlab chikish samaradorligini sezilarli darajada ochishini ta'minlaydi. Barcha ishtirokchilar kichik (5-6 kishi) guruxlarga bulinib, ular xal kilinadigan ijodiy vazifa va muammo buyicha 15 dakika davomida mustakil ravishda akliy, masalan, radioaloka-yuldoshli aloka tugrisida xujum utkazadilar. Shundan sung xar bir kichik guruh vakillari uz guruxlarida ishlab

chikilgan goya xakida axborot beradilar va ukituvchi raxbarligida jamoa bulib baxo beradilar va ularning eng yaxshilari tanlab olinadi. Aqliy xujum tinglovchilarini faollashtiradi va charchokni yengadi.

### Konseptual jadval.

Bu metod **klaster konseptual** jadval grafik tashkilotchilar qatoriga kiradi. U taqqoslash, solishtirish va boshkalarga boglik bulgan fikrlash jarayonlarini yakkol namoyish etadi. Konseptual jadvalning vertikali buyicha taqqoslanuvchi, gorizontali buyicha esa taqqoslanadigan turli tavsiflar joylashtiriladi. Misol tarikasida I.P. Podlasiy (1999)dan olingan quyidagi konseptual jadvalni kurib chiqamiz (4-jadval).

O`qitish usullari samaradorligini taqqoslash

O`qitish metodlari	Rivojlantirish						
	fikr-lashni	bilishga qiziqishni	Faollik	xotirani	Irodani	fikr-lashni, aytish qobiliyatini	hissiyotlarni
Hikoya, munozara	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	-	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	-	<input type="checkbox"/>
Suhbat	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
Ma`ruza	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
Munozara	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
Kasb bilan ishlash	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
Namoyish kilish	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
Ko`rsatish	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
Video uslub	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
Tajriba metodi	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	-	<input type="checkbox"/>
Dasturlashgan ta`lim	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	-	-
O`rgatuvchi nazorat	<input type="checkbox"/>	-	-	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>

Konseptual jadvalda taxliliy axborotning anchagina kismi ixcham joylashtirilgan. Bunday jadval mashg'ulotning metodik ta'minoti (slyd, ukuv plakati va x.k.)ga juda kul keladi. Muayyan muammo buyicha konseptual jadvallarni kichik guruxlarda akliy xujumdan foydalanib tuzish va uni gurux buyicha muxokama kilib, eng makbul variantni kabul qilish-amaliy mashg'ulotlarning «anglash» fazasida yaxshi natija beradi.

### **T-sxema.**

Bu qiyosiy kattaliklar (ha □ yo`q, roziman □ qarshiman) universal grafik tashkilotchisi bulib, u biri-biridan keskin fark kiluvchi o`zaro qarama-qarshi va ba'zi mezonlar bilan farq qiluvchi tasvirlashga qulaylik yaratadi (5-jadval).

#### **O`quvchilar metodik mahorati darajasini taqqoslash varianti**

<b>Yuqori</b>	<b>Past</b>
Pedagog metodlarni ukuvchi-larning bilim darajasi va kobiliyatiga mos xolda tanlaydi.	Ukitish metodlarini oldindan shakllanib kolgan odatga kura ukuvchilar kontingentini xisobga olmay kullaydi.
Tanlangan ukitish metodlarining kullangandagi natijasini oldindan kura oladi.	Tanlangan ukitish vositalarining samarasi tugrisida juda kam uylaydi.
Tavsif etishning vositali usullaridan kuprok foydalanadi.	Bevosita tavsif etish usullari ustuvorlik kiladi.
O`quv dasturini mustakil uzlash-tirishga sharoit yaratadi.	Uz kursatmalarini anik bajarilishini yukori baxolaydi.
Pedagogik tavsif etishning turlili-tumanligi.	Pedagogik tavsif etish kulamining torligi.
Mulokotning demokratik uslubi	Mulokotning avtoritar uslubi.
Tafakkur, xissiyot va akl-zakovatni rivojlantirishning ustuvorligi.	Belgilangan talablar buyicha ijrochilikni rivojlantirishning ustuvorligi.
O`qituvchi va talaba faoliyatining samaradorligini oshirishga yu-naltirilgan yangi texnologiyani kullaydi.	O`qitish texnologiyasi eskirgan va samarasi kam.
Faollikni ragbatlantiradi, ta-labalarning faoliyati orkali ukitishni ta'minlaydi.	Talabalarga bilimni utkazishga yunaltirilgan.

**Pinbord (inglizchadan: pin-mustahkamlash; board-doska).** Bu o`qitish uslubining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o`quv suhbatini amaliy usul bilan bog`lanib ketadi. Uning afzallik funksiyalari-rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir: ukuvchilarda mulokot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, uz fikrini fakat ogzaki emas, balki yozma ravishda bayon etish maxorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish kunikmasi rivojlanadi.

**Pinbordning texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va tarkibi	Faoliyat	
	O`qituvchi	O`quvchi
I bosqich Tayyorlov	Mavzuni aniklaydi, mak-sadni anik ifoda etadi, natija va baxolash mezonini aniklaydi. Kizik-tiruvchi (muzokarani) savol va asosiy fikrlarni shakllantiradi.	
II bosqich. Mavzuni ishlash	Mavzu tuzilishini aniklaydi, uz muloxaza-larini bildiradi va ukuvchilarga uz nuktai nazarlarini bayon etishni taklif etadi. «Pinbord» usulini tushuntiradi. Munozara boshlanishini tezlashtirish uchun bir nechta tayyorlangan savollarni berishi mumkin.	Munozara vaktida mavzuni ishlab chikadilar.
III bosqich. O`z xulosalarini yozma bayon etish	Kuzatadi.	Munozara davomida shakl-langan fikrlarini asosiy xulosalar kurinishida kogo varagi yoki kartochkaga yozib doskaga ilib kuyadilar.
IV bosqich. Umumlash-tirish.	Maslaxat va tavsiya orkali majbur kilmasdan kumak berish.	O`quv guruxining 2-3 a`zosi urtoklari bilan maslaxat-lashgan xolda mazmunig karab ma`lumotni tartiblaydilar va guruxlarga buladilar. Strelka, chizik va boshka belgilar yordamida ularning uzaro munosabatini: bir butun yoki karama-karshi nuktai nazarni shakllantiradilar.
V bosqich. Yakun yasash, taxlil kilish va natijalarni baxolash.	O`quvchilar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasaydi, taxlil kiladi va baxolaydi.	O`z-o`ziga baho berishni amalga oshirishlari mumkin.

### **Kichik guruhlarda ishlash buyicha amaliy mashg`ulot.**

Mashg`ulot maqsadi:

Seminar qatnashchilariga guruhlarda ishlash tamoyillarini tushuntirish va amalda kursatish.

Mashgulot natijasi:

Seminar katnashchilari guruxlarda ishlashni tashkil kila oladilar. Guruxda ishlash koidalarini biladilar.

Ta'limning guruhli shakli, eng avvalo, ta'limning guruxli shakli «ta'lim beruvchi-ta'lim oluvchi» dialogidan voz kechishni va «ta'lim beruvchi-gurux-ta'lim oluvchi» kurinishidagi uch tomonlama uzaro munosabatga utishni nazarda tutadi. O`quv guruxi, tarkibi bo`yicha harakatchan kichik guruhlarga bo`linadi va ularning xar biri uzicha ukuv materialini uzlashtiradi. Tajriba shuni kursatadiki, shu tufayli siz bilan ta'lim oluvchilar urtasida ancha mustaxkam kontakt urnatiladi, shaxsiy va bir vaktning uzida ta'lim jarayonida jamoaviy ruxiy xolat kuchayadi.

Ta'lim oluvchilarning xamkorlikdagi xarakati tashkillashadi, bu esa, ukuv-bilish jarayonini faollashtirishga, ularda empatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga kumaklashadi:

-vazifani xamkorlikda bajarish jarayonida, ta'lim oluvchilarda, urtoklari tomonidan bildirilgan fikrlarni muxokama kilishga motivasiya paydo buladi;

-ta'lim oluvchilar bir-biriga savollar beradilar, shuning uchun, ular savollarni anik shakllantirishni bilishlari zarur, javoblarni-argumentlashtirishni, tushunishga erishish uchun esa ular bir- birlarini diqqat bilan eshitishlari kerak;

-guruhlarda ishlash paytida, zarurati bulganda, ta'lim oluvchilar yordam berishlarini suraydilar va boshkalarga yordam berishni urganadilar.

Har bir ta'lim oluvchining potensial imkoniyatlarining rivojlanishi va amalga oshirilishi ta'minlanadi:

-qobiliyatli va iqtidorli bolalar, ularni «maqtanganlik»da ayblashlaridan cho`chimasdan uz kobiliyatlarini kursatishlari mumkin. Ular, guruxda nafakat ta'lim beruvchi rovida, balki ta'lim oluvchi rovida xam bulishlari mumkin va ta'lim beruvchi rolidagi uz urtoklari tomonidan baxolanishi, rakib bulmasdan ulardan urganishi mumkin;

-o`rtacha kobiliyatga ega yoki xarakteri buyicha kurkok bolalar uz bilimlari va mahoratlarini namoyon kilish imkoniyatini oladilar. Kichik guruxlarda ishlash, ularni stress xolatlardan xalos etadi, ya'ni notugri javob berganda butun jamoa

oldida izza bulishdan kurkishdan xoli buladi. Gurux a'zolari, javobni dustona baxolab, ularda uziga ishonch tuygusini uygotish imkonini beradilar. 4-5 kishidan iborat guruxda kurkok kishi 25 kishilik gurux oldida uzini tutishga nisbatan uzini ancha erkin xis etadi;

Ta'limning ushbu shakli, ta'lim oluvchilar bilimini uzaro xamkorlikda boyishini ta'minlaydi: fakatgina kooperasiya va xarakatlar (bilish) usullari bilan uzaro almashish umumiy maxsulot olish-muammoni yechish imkonini beradi. Shuning uchun, guruxda ta'lim berishda, biz jamoaviy muxokama kilishdan, uzaro konsultasiyalar berishda maksimal foydalanamiz.

Guruhlarda ishlash, atrofdagilarga bulgan munosabatni uzgartiradi, «men va ular»dan «biz»ga utishni ta'minlaydi va uzini guruxning bir bulagi sifatida xis kilish imkonini beradi.

-ta'lim oluvchilar kuyidagilarni bilishadi:

-urganilayotgan materialni oldin utilgan material bilan boglikligini izlab topishni;

-birgalikda utilayotgan ukuv materialini muxokama kilishni;

-shaxsiy fikrlarini shakllantirish, ifoda etish va argumentlashni;

-bir-birlarini muvaffakiyatlarini kursatishni;

-berilgan ishni oxiriga yetkazishga intilishda bir-birini kullab-kuvvatlashni;

-individual farkning mavjudligiga karamasdan xamkorlik kilishni;

-ma'lum bir vazifani bajarish uchun tuzilgan jamoada yoki kichik guruxda maxsuldor ishlashni;

Ta'lim oluvchilar quyidagi xususiyatlarga ega:

-kommunikasiyaga va turli usullarda mulokot kilishga;

-kooperasiyaga va xarakatlar usullarini almashtirishga;

-bir-birini tushunishga va empatiyaga;

-uzini va guruxning mexnati natijalari uchun mas'uliyatli bulishga;

-refleksiyaga-bu orkali katnashchini, uzining shaxsiy xarakatlariga munosabati belgilanadi va ushbu xarakatlarni aynan uxshash korreksiyasi ta'minlanadi.

Ta'limning ushbu shakli, tugri tashkil kilingan pedagogik raxbarlik va boshkaruv paytida, jamoatchilikning asosiy shartlarini amalga oshirishda, ya'ni umumiy maksadni anglashda, vazifalarni maksadli taksimlashda, uzaro boglik va nazoratda kumaklashadi.

**Guruhlarda ishlash qoidalari** ta'lim oluvchilarni guruxlarda ishlashga o`rgatish uta muhimdir. Avvalo:

ta'lim oluvchilar, gurux a'zolarining majburiyatlarini bilishlari va bajarishlari zarur;

-har bir a'zo urtoklarining fikrini eshitishi lozim;

-har bir a'zo ishda faol katnashishi va xamkorlikda ishlashdan buyin tortmasligi kerak;

-har bir a'zo zarurati bulganda yordam surashi kerak;

-har bir a'zo undan yordam suraganda, boshkalarga uz yordamini berishi kerak;

-har bir a'zo gurux ishining natijalarini baxolashda ishtirok etishi zarur;

-har bir a'zo uzining rolini yaxshi tushunishi va bajarishi kerak;

-har bir a'zo, konkret vazifani bajarishda, uzining konkret vazifasini bilishi lozim.

## **2.2. Talabalarda pedagogik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish samaradorligini aniqlash bo'yicha tajriba-sinov ishlari**

Oliy o'quv yurti talabalarida pedagogik bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga doir biz olib borgan izlanishlar Samarqand Davlat Universiteti pedagogika fakulteti, pedagogika-psixologiya yo`nalishi 205-206-guruh talabalaridan 113 nafar talaba hamda Samarqand Davlat me'morchilik – qurilish instituti kasbiy ta'lim yo`nalishi II-III kurslaridan 113 nafar talaba sinab ko'rildi va amaliyotga tadbiiq etildi. Tajriba-sinov ishlarini maxsus tayyorgarlikdan o'tgan professor-o'qituvchilar olib bordilar va dissertantning o'zi ham shaxsan ishtirok etdi.

Tajriba-sinov ishlarini o'tkazishni kafedramiz tomonidan belgilangan ekspertlar kuzatib bordilar. Bunda ularning vazifalari quyidagicha belgilab qo'yildi:

- tajriba-sinov ishlarini talab darajasida olib borilishini nazorat qilish, yuzaga kelgan muammolarni o'z vaqtida tadqiqotchi N.Mansurovaga ma'lum qilish;

- talabalarning pedagogik bilim va ko'nikmalarini shakllantirish darajasini aniqlab borish;

- har semestr yakunida ekspert xulosasini tayyorlash.

Mazkur xulosada quyidagi masalalarni yoritilishi nazarda tutildi:

- tajriba-sinov maydonchasida o'quv-biluv sharoitlarining yaratilishi;

- “Pedagogika nazariyasi” fani o'qituvchilarinig metodik (metodik tavsiyalar, o'quv rejasi, dasturi, darslik va qo'llanmalari, tasviriy vositalar, dars ishlanmalari va boshqa didaktik materiallar) jihatdan ta'minlanishi;

- tajriba-sinov maydonchasi ilmiy rahbari ko'rsatmalarining mavjudligi;

- tajriba-sinov ishlari bo'yicha xulosa va natijalarni yakunlash.

Shuningdek, har bir tajriba-sinov ishini olib boruvchi professor-o'qituvchiga mazkur ish yuzasidan axborot berib borishni ta'minlash maqsadida quyidagi varaqa berib qo'yildi.

## Tajriba-sinov ishlari yuzasidan axborot varaqasi

\_\_\_\_\_Universiteti(instituti),\_\_\_\_\_guruxi\_\_\_\_\_

Talabalar soni\_\_\_\_\_

Sana:

Mavzu:

Ishlanmalarning mavjudligi:

Fan dasturiga mosligi:

Talabalar tayyorgarligiga mosligi:

Pedagogik bilim va ko'nikmalarning shakllanganligi:

Ularni talabalar faoliyatida namoyon bo'lishi:

Talabalarning o'zlashtirish darajalari:

Joriy nazorat:

Oraliq nazorat:

Yakuniy nazorat:

Tajriba-sinov olib boruvchi o'qituvchining fikr va mulohaza va takliflari.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida 114 ta talabaning pedagogik tayyorgarlik darajasi tahlil qilindi. Tajriba-sinov natijalari shundan dalil beradiki, talabalar yetarli darajada pedagogik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lganlar. Olgan bilimlari ko'nikmalarga aylangan, bu esa ularning faoliyatida namoyon bo'lgan.

Tadqiqot natijalari oliy o'quv yurtlari talabalarida mustaqil fikrlash ancha faollashganini namoyon qildi. Ularda har bir masalani o'zlari hal qilishga intilish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, o'z ajdodlari pedagogik va ilmiy merosidan g'ururlanish kabi fazilatlar shakllana boshladi.

Magistrlik dissertasiyasi bo'yicha barcha tajriba-sinov ishlarimiz shundan dalolat beradiki, oliy o'quv yurtlari talabalarida pedagogik bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga oid ishlar ma'lum maqsadga yo'naltirilsa, reja va tizimga qattiq

rioya etilsa, ma'lum shart-sharoitlar yaratilsa ko'zlangan natijaga muvaffaqiyatli erishish mumkin.

Tajriba-sinov ishlarining natijalari quyidagi 1-, 2-nchi jadvallarda keltirilgan.

Yuqorida bayon qilinganlarga asosanib, nazorat guruhlari (1-jadval) va tajriba-sinov guruhlari (2-jadval) talabalarinig pedagogik bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirganlik darajalarini tahlil qilamiz.

**Nazorat guruhlari talabalarining pedagogik bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirganlik darajalari**

7-jadval

Nazorat guruhlari	Talabalar soni	O'zlashtirish darajalari					
		I		II		III	
		%		%		%	
1	30	5	17	13	43	12	40
2	29	4	13	15	51	8	7
3	28	9	32	10	35	8	8
4	26	5	19	11	42	8	0
Jami:	113	23	20	49	43	41	6

**Tajriba guruhlari talabalarining pedagogik bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirganlik darajalari**

8-jadval

Tajriba guruhlari	Talabalar soni	O'zlashtirish darajalari					
		I		II		III	
		%		%		%	
1	32	15	46	8	25	3	9
2	26	17	65	7	26	2	7
3	27	14	51	14	51	4	14
4	29	12	41	12	41	6	20
Jami:	114	58	50	41	35	15	13

Magistrlik dissertasiyamiz pedagogik bilim va ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini o'rganishni talab etganligi munosabati bilan bu darajalanishni V.P.Bespalkoning uslubi yordamida amalga oshirdik.

Unga ko'ra dastlabki o'zlashtirish koeffisienti kiritiladi. Ya'ni

$$K_0 = A/r$$

Ushbu formulada K-pedagogik bilim va ko'nikmalar koeffisienti;

A-savollarga berilgan to'g'ri javoblar soni;

R-talabalarga berilgan savollarning umumiy soni.

Pedagogik bilim va ko'nikmalarining o'zlashtirish koeffisienti  $0 \leq K \leq 1$  hamda to'g'ri javoblar soni  $0 < K < 1$  hamda to'g'ri javoblar soni  $0 \leq A \leq R$  shartlarini bajarishlari kerak.

Bu tanlangan mezonlar shkalasi bilan taqqoslanadi.  $K_0$  ni topish o'zlashtirish sifatini o'lchash operatsiyasi hisoblanadi. O'zlashtirish koeffisienti orqali ta'lim jarayonining tugallanganligi to'g'risida hukm chiqariladi. O'tkazilgan tadqiqotimiz  $K_0 > 0,7$  holatida ta'lim jarayoni tugallangan deb hisoblash mumkinligini,  $K_0 \leq 0,7$  koeffisienti bilan o'zlashtirishda talabalar keyingi faoliyatlarida o'zlashtirishlari past bo'lishini ko'rsatdi.

V.P. Bepalkoning tadqiqotlarida ishlab chiqilgan to'g'rilik va koeffisientlarni hisoblash chegaralarining uch darajasini ajratish mumkin:

I. Yuqori daraja, agar  $K$  to'g'ri  $> 0,85$

II. O'rta daraja, agar  $0,7 < K$  to'g'ri  $< 0,85$

III. Past daraja, agar  $K$  to'g'ri  $\leq 0,7$ .

Olingan natijalar shundan dalolat beradiki, nazorat guruhlarida talabalarning pedagogik bilim va ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi ancha past bo'lib, tajriba guruhlarida esa bu ko'rsatkichlarning ancha yuqori ekanligi qayd etildi. Bu esa o'z navbatida, o'tkazilgan tajriba natijalarinig to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, talabalar mamlakatimizda ta'lim ustuvorligi asosida amalga oshirilayotgan barcha ishlarga katta qiziqish bilan munosabatlarini bildiradigan bo'ldilar. Ularda pedagogik bilim va ko'nikmalar shakllanib, ta'lim jarayoniga yangi-yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish ko'nikmalari tarbiyalana boshladi. Talabalar innovatsiya, innovatsion faoliyatga bag'ishlangan tadbirlarga befarq bo'lmasdan, ularda faol qatnashadigan bo'ldilar.

Demak, magistrlik dissertasiyasi doirasida olib borilgan izlanishlar talabalarda pedagogik bilim va ko'nikmalarning shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari muammosining yaxlitligi, tizimli tadqiq etilishi tadqiqotimiz farazining to'g'ri ekanligini tasdiqladi.

## UMUMIY XULOSALAR

Pedagogik texnologiyalar “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da dolzarb tadqiqot obyekti darajasiga ko’tarilgan va jamiyatimizning fan, ta’lim muassasalari oldiga qo’ygan ijtimoiy buyurtmasi sifatida e’tirof etilgan.

Dissertatsiyada o’rganilgan innovatsiya, innovatsion faoliyat kabi tushunchalarning mazmun mohiyatini yoritib berish barobarida innovatsion ta’lim tadrijiy rivojlanib borayotganligi va bu tushunchalar hych qachon eskirmasligi, hali hamon olimlar tomonidan ko’p ilmiy izlanishlar olib borilishini talab etadi.

Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion jarayonlarning mavjud holatini o’rganish jarayonida quyidagi muammolarni hal etish yo’li bilan ta’lim tizimiga Yangi pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish mumkin deb hisobladik:

- ta’lim texnologiyasi g’oyalarining ta’lim jarayoniga to’laqonli tadbiiq etilishi uchun mintaqaviy ichki imkoniyatlarni puxta o’rganish;

- xususiy fanlarning o’qitilishi jarayoniga ilg’or texnologiyalarni joriy etish chora-larini belgilash, zarur shart-sharoitlarni yaratish;

- barcha turdagi ta’lim muassasalarining pedagog xodimlarini qayta tayyorlash, ularning ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish malakalarini oshirish;

- nazariyaning yagona nom bilan nomlanishiga erishish (bu pedagoglar o’rtasida muayyan tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda).

- ta’lim sub’yektlarining texnikaviy savodxonli-giga erishish;

- tezkor axborot xizmatini yo’lga qo’yish;

- pedagogik jarayonning demokratlashu va insonparvarlashuviga erishish;

- o’qituvchining individual-lashuviga alohida ahamiyat berish;

- tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish, umumlashtirish, tavsiyalarni ishlab chiquvchi markazni tashkil etish.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida ta'lim jaryoniga shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etish masalalari muhokama qilindi va uni amalga oshirish klaster, sinkveyn, ven diagrammasi, B\B\B\ usuli, intervyu o'yini kabi interfaol ta'lim usullari misolida ko'rsatib berish jarayonida bakalavr talabalarida o'qishga nisbatan katta qiziqish, faollikni, o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari an'anaviy ta'limdan ko'ra yuqori samaraga erishish mumkin deb hisobladik.

Ta'lim jarayoninig ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashning dolzarbligini quyidagilar deb hisoblaymiz:

1. Taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o`rin olishi uchun aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanishining zarurligi.

2. An'anaviy o`qitish tizimida, yozma va ogzaki so`zlarga tayanib ish ko`rishi tufayli «axborotli o`qitish» sifatida tavsiflanib, pedagog faoliyati birgina o`quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi.

3. Fan-texnika taraqqiyotining o`ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko`payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi.

4. Kishilik jamiyati o`z taraqqiyotining shu kundagi bisqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo`lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o`tib borayotganligi;

5. Yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg`or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, magistrlik dissertasiyamizda amalga oshirilgan statistik tahlillar tadqiqotning ilmiy farazi to'g'riligini tasdiqlash imkonini berdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat va mafkura.-T.: O'zbekiston, 1996.-366 b.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin.-T.: O'zbekiston, 1996.-380 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston X X I asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston, 1997.-326 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008.-176 b.
5. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis IX sessiyasida so'zlagan nutqi.-T.: Sharq, 1998.-64b.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: Sharq, 1998.-20-29 b.
7. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: Sharq, 1998.-32-64 b.
8. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.-T., 2001.-68 b.
9. Avliyoqulov N.X. Prakticheskiye osnovq modulnoy sistemq obucheniye i pedagogicheskoy texnologii.-Buxara, 2001.-99 s.
10. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogicheskoye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo.-T.: Moliya, 2002.-90 s.
11. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T.: Moliya, 2006.-90 b.
12. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnyye texnologii obucheniye.-M.: MITP i MIO, 1995.-169 s.

13. Bepalko V.P. Slagayemiye pedagogicheskoy texnologii.- M.: Nauka, 1989.-192 s.
14. Al Buxariy. Al jome' as-Sahih ("To'g'ri hadislar).-T.
15. Vasilyeva I.I. Integrirovannoye obucheniye i modulnoye pedagogicheskiye texnologii// specialist.-1997.-№6.-s.54-56
16. Zagrenova P.V., Nikolina V.V. Teoriya i texnologiya obucheniye.- M.: Vis.shkola, 2004.-157 s.
17. Zagvyazinskiy V.I. Innovatsionnoye prosessq v obrazovanii pedagogicheskaya nauka.-Tyumen, 1990.
18. Ziyomuxammedov B., Abdullaeva Sh. Ilg`or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.-Toshkent: Ibn Sino, 2001/-78 b.
19. Ilina T.A. Struktura-sistemniy podxod i organizasii obucheniye.-M.,1971.-72 s.
20. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse.- M.: Znaniye, 1989.-80 s.
21. Korolev F.F. Sistemniy podxod i vozmojnosti yego prilozheniya// Sovetskaya pedagogika,-1970.-№9.-s.25
22. Muxina S.A., Solovyeva A.A. Netradisionniye pedagogicheskiye texnologii v obuchenii.-M.: Feniks, 2004.-384 s.
23. Mahmudov M. I dr. Pedagogicheskiye texnologii, razvitiye mishleniye uchashixsya.-Kazon, 1993.-89 s.
24. Nishonaliyev U. Modulniye pedagogicheskiye texnologii // Professionalnoye obrazovaniye, 2002.-№14.-s.10-12.
25. Komenskiy Ya.A. Velikaya didaktika.
26. Zufarov Sh.M. Ped. Kollejarida pedagogika fanini pedagogik innovatika va pedagogik aksiologiya bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganish. T., 2009.-s.161-163.
27. Olimov Q.T.. va b.q. Kasbiy fanlarni o'qitishning modul tizimi // kasb-hunar ta'lim.-2005.-№ 2.-18 b.

- 28.Peregudov L.V. Osnovi integrasii obrazovaniye, nauki i proizvodstva// Ta'lim muammolari.-1998.-№4.-s.15-17.
- 29.Ochilov M.Yangi pedagogik texnologiyalar.-Qarshi: Nasaf, 2000.-80b.
- 24.Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi.- T.:2008.-
- 30.Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.-T.: Moliya, 2003.-168 b.
- 31.Tolipov U.K. Pedagogik jarayonni loyihalash texnologiyasi// Uzluksiz ta'lim.-2004.-№ 4.-3-10-b.
- 32.Isomiddinov S. Va b.q. Innovatsion ta'limning o'quv jarayonida qo'llanilishi // Xalq ta'limi jurnali., 2005, 3-son.-37-39 b.
- 33.Farberman B.L. Progressivniye pedagogicheskiye texnologii.-T.:Fan, 2000.-130 s.
- 34.Xadjaboyev A.R. Uchebno-metodicheskiy kompleks uchiteley trudovogo obucheniye.-T.,1989.-91 s.
- 35.Shodiyev N. Yangi pedagogik texnologiyalar.-Samarqand, 2005.-116 b.
- 36.To'raqulov O.X. O'qitishda innovatsion usullardan foydalangish // kasb-hunar ta'limi, 2005, 6-son.-22-23 b.
- 37.Golish P.V. Kasb-hunar kollejlarda modulli dastur asosida ta'lim berish// kasb-hunar ta'limi.-2002.-№4.-24-b.
- 38.Politicheskiy slovar.-M.,1986.
- 39.Ensiklopedicheskiy slovar.-M., 1979.
- 40.O'zbekiston fani va texnologiyalarida innovatsiya: muammolar, yechimlar va istiqboli//Res. ilmiy-amaliy Konferensiyasi materiallari. Samarqand sh. 16-17 mart.- Samarqand, 2007.
41. Saidahmedov N. Pedagogicheskiy innovatsion opit v otechestvennoy i zarubejnoj praktike// Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishni nazar. Uslub. Muammolari. Respublika ilmiy konferensiya materiallari.- Samarqand, 2010.-s 153-157.

42.Sulaymonova G. Xalqaro tajribalardan foydalanish orqali uzluksiz ta'lim samaradorligini oshirish.- Samarqand, 2010.- 160-163 b.

43.Jumayev D., Qurbonov Sh. Boshlang'ich sinflarda klasterdan foydalanish.- Samarqand, 2010.-75-77 b.

44.Mahkamov S. Ijtimoiy fanlarni o'rganishga integrasion yondashuv// X.T, 2004, 5-son.-48-51 b.

45.Jo'rayev R., Tursunov S. Ta'lim menejmenti.-T., 2006221-223 b. "Innovatsiya" hamda 103-112 betlar.

46.Jumaniyozova M. Innovatsion faoliyat tushunchasi// Xalq ta'limi, 2004, 6-son-132-140 b.

47.Umarova F.Z. Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning roli. T., 2010 O'MKXTT.-111-112b. 104-105 b.

48.Ushinskiy K.D. Sobranie sochineniy.SSSRPFA nashri 7-tom –M.1949-332b

49.[www. ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

50.[www. referat.uz](http://www.referat.uz).

51.[www. google.uz](http://www.google.uz).